

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLGIYA INSTITUTI**

**Qo'lyozma huquqida**

Madrahimova Gulnora Olimjanovna

**“SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN SAMARALI  
FOYDALANISH YO'LLARI”**

**Mutaxassislik: 5340100 – “Iqtisodiyot”**

**Bakalavr akademik darajasini olish uchun**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy raxbar:**

Dotsent Sobirov I.

**Namangan-2015 yil**

**“SANOAT KORXONALARIDA ASOSIY VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO`LLARI”**

**MUNDARIJA**

	<b>KIRISH</b>	<b>3</b>
<b>I BOB.</b>	<b>Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanishning nazariy asoslari</b>	<b>8</b>
1.1.	Sanoat korxonalarini faoliyatida asosiy vositalarni tutgan o`rni va ahamiyati.	<b>8</b>
1.2.	Sanoat korxonalarida asosiy vositalarning holati va foydalanish samaradorligi ko`rsatkichlari tizimi.	<b>18</b>
<b>II- BOB.</b>	<b>“Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining viloyatimiz iqtisodiyotida tutgan o`rni.</b>	<b>27</b>
2.1.	“Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati va uning asosiy vositalardan foydalanishi holati tahlili.	<b>27</b>
2.2.	“Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy tahlili.	<b>34</b>
<b>III- BOB.</b>	<b>Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanishning takomillashtirish istiqbollari.</b>	<b>44</b>
3.1.	Sanoat korxonalarini qo`llab - quvvatlashning asosiy yo`nalishlari.	<b>44</b>
3.2.	Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish yo`nalishlari.	<b>49</b>
	<b>Xulosa va takliflar</b>	<b>63</b>
	<b>Foydalangan adabiyotlar ro`yxati</b>	<b>67</b>

## Kirish

**Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, qo`lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o`rni ahamiyatli hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo`njallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida quyidagilarni ta`kidladilar:

“Barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilmasdan turib, tashqi bozorlarga chiqish va mahsulotlarimizni sotish borasidagi eksport dasturini amalga oshirish, valyuta daromadlari tushumini ta`minlash, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishni va ish o`rinlarini tashkil etish, pirovard natijada o`z oldimizga qo`ygan yuksak maqsadlarimizga erishish haqida so`z yuritish mumkin emas.”<sup>1</sup>

Darxaqiqat, mamlakatimiz iqtisodiyoti oldiga qo`yilgan iqtisodiyotni modernizatsiyalashni amalga oshirish lozim bo`ladi. Aks holda mo`njallangan rejalar amalga oshmasligi mumkin. mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo`yicha maxsus dastur qabul qilingan va barcha ishlar ushbu dastur asosida amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlarning tahlili shuni ko`rsatadiki, qo`lga kiritilayotgan yutuq va muvaffaqiyatlarning asosida iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonining o`rni ahamiyatli hisoblanadi. Shunga ko`ra, hozirda modernizatsiya jarayonining nazariy va metodologik asoslarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> I.Karimov “2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo`l ochib berish – ustuvor vazifamizdir.” “Xalq so`zi” gazetasi 2015 yil 18 yanvar .

Eng avvalo, modernizatsiya atamasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, odatda uni texnika, texnologiyaga oid tushuncha deb qaraladi. Jumladan, iqtisodiyotga oid aksariyat lug'atlarda unga quyidagi mazmundagi ta'rif beriladi: «Modernizatsiya – ob'ektni yangilash, yaxshilash, takomillashtirish, uni yangi talablar va me'yorlarga, texnik shartlarga, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish. Asosan mashina, asbob-uskunalar, texnologik jarayonlar modernizatsiyalanadi»<sup>2</sup>. Fikrimizcha, bu modernizatsiyaga tor ma'nodagi yondashuv bo'lib, bugungi kunda uning keng ma'nodagi mazmuni tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

Modernizatsiya – an'anaviy jamiyatning ilg'or, industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanishini ta'minlovchi ijtimoiy-tarixiy jarayon. Modernizatsiyaning keng ma'nodagi mazmunini tushunishda iqtisodchi olim R.Nureev uning neoklassik va keynscha talqinlarini farqlaydi. Jumladan, neoklassiklar tomonidan modernizatsiyaga xususiy mulkchilik va demokratiyani mustahkamlash sifatida yondashilsa, keynschilar tomonidan, eng avvalo, xo'jalikning asosiy tarmoqlarini qamrab oluvchi tarkibiy o'zgarishlar sifatida tushuniladi. Dastlabki o'ringa texnik-iqtisodiy muammolar qo'yiladi. Xo'jalikning zamonaviy tarmoqlarining mavjud bo'lmasligi taraqqiyotning asosiy to'sqinlik kuchi sifatida qabul qilinadi<sup>3</sup>.

Prezidentimiz I.Karimovning 2014 yilning asosiy yakunlari va 2015 yilda O'zbekistonni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida bu masalaga yana muhim yo'nalish sifatida ahamiyat berilishi lozimligi ta'kidlandi. Bu soha mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda, aholining vaqtincha bo'sh qismini ish bilan ta'minlashga va iste'mol bozorini zaruriy tovar va mahsulotlar bilan ta'minlashda muhim o'rin tutishi ko'rsatib o'tildi.

Namangan viloyatida ham ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish borasida bir qancha isloxoatlar amalga oshirildi. Jumladan, otgan yillar davomida inqirozga qarshi qabul qilingan Dasturlar asosida 48 ta yirik va kichik sanoat korxonalarida

---

<sup>2</sup> <http://ekonomic.doco.ru/>

<sup>3</sup> Нуреев Р. Модернизация экономики: концепции и средства. - <http://www.soob.ru/n/2005/10/c/6>.

modernizatsiya va kengaytirish ishlari amalga oshirilib, jami 22,6 mlrd.so`m mablag`lar, shundan 15,1 mlrd.so`m korxonalarining o`z mablag`lari, 5,1 mlrd.so`m bank kreditlari va 1,8 mlrd.so`m xorijiy investitsiyalar hisobiga o`zlashtirildi. Jami korxonalar tomonidan 1306 ta yangi ishchi o`rinlari yaratildi.

Hududda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 12 martdagi “2009 – 2014 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlash bo`yicha eng muhim loyihalarni amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida”gi PQ - 1072-sonli qaroriga asosan 3 ta ishlab chiqarish loyihasida; «Xayn Teks» qo`shma korxonasida 14,5 mln dollar, Pop paxta tozalash korxonasida 2,7 mlrd.so`m va Pop tumanidagi «R.Mirzaliev» qoliqli non ishlab chiqarish korxonasida 20,0 mln so`m mablag`lar o`zlashtirildi<sup>4</sup>.

Mustaqillik hamda barcha xo`jalik yuritish tizimining bozor munosabatlariga o`tishi iqtisodiyotning asosiy bo`g`ini hisoblanuvchi korxonalar maqomining sezilarli ravishda o`zgarishiga sabab bo`ldi. Korxonalar endilikda davlatga tegishli bo`lgan paytlardagidan farqli o`laroq mahsulot ishlab chiqarish bo`yicha faoliyatlarini direktiva ko`rsatkichlari asosida emas, balki O`zbekiston Respublikasi «Korxonalar to`g`risida»gi qonuni va bozor talablariga asosan mustaqil ravishda yuritmoqda. Ular o`zlariga kerak bo`lgan ishchi va xodimlar sonini mustaqil belgilamoqda, ishlab chiqarish texnikasi va texnologiyasi, tejamkorlik rejimiga rioya qilish masalalari bilan shug`ullanmoqda, zamonaviy marketing va menedjmentni yo`lga qo`ymoqdalar hamda joriy ishlab chiqarishni rejalashtirmoqdalar va rivojlanishning zaruriy prognozlarini amalga oshirmoqdalar.

Yuqoridagi masalalar bugungi kunda dolzar masalalardan bo`lganligi sababli bitiruv malakaviy ishini yozishga asos bo`ldi.

**Mavzuning o`rganilganlik darajasi.** Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish haqidagi ilk tadqiqotlar xorijiy olimlardan F.Teylor, G.Emerson. A.Fayol, M.Veber, E.Meyo, R.Laykert, G.Sayton,

---

<sup>4</sup> Namangan Viloyatdagi sanoat korxonalarida 2010 yil yakuni va 2011 yilda modernizatsiya va texnik qayta jihozlash ishlari bo`yicha xisoboti, region.uz

E.Deylarning ilmiy ishlarida o`z ifodasini topgan. MDX mamlakatlarning olimlaridan A.K.Gastev, I.M.Kerjentsev, V.G.Afansyev, D.V.Gvishiani, S.B.Kamenetser, O.V.Kozlova, D.M.Kruk, A.M.Otarov, G.X.Popovlar korxonalarda asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish masalalariga salmoqli hissa qo`shganlar.

Respublikamiz iqtisodchi olimlarining qator ilmiy izlanishlari asosiy vositalardan samarali foydalanish va takomillashtirish hamda uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta`siri masalalariga bag`ishlangan bo`lib, mintaqaviy xususiyatlarni qamrab olgan holda nazariy va amaliy jihatdan keng yoritib o`tilgan. Bular: S.S.G`ulomov, M.Sharifxo`jaev, T.Ergashev, O.Xikmatov, E.Mahmudov, A.Ortiqov, V.Kim, M.L.Tursunxo`jaev, T.K.Iminov, D.N.Raximova, Sh.N.Zaynuddinov, B.Erkaev, R.Ya.Dosumov, M.A.Ikramov va boshqalarning ilmiy ishlarida asosiy vositalardan samarali foydalanish masalalari o`ziga hos tarzda talqin etilgan.

**Tadqiqot ob`ekti sifatida** O`zbekiston Rekspublikasi Namangan viloyati Pop tumani “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati tanlab olindi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqotning maqsad va vazifalari bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatida asosiy vositalardan samarali foydalanish muammosini o`rganish va takomillashtirish hamda uning samaradorligini oshirish bo`yicha ilmiy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsaddan kelib chiqqan holda izlanishlarimizda quyidagi vazifalar belgilandi va hal qilindi:

- Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatida asosiy vositalarni tutgan o`rni va ahamiyatini nazariy asoslash;
- Sanoat korxonalarida asosiy vositalarning holati va foydalanish samaradorligi ko`rsatkichlari tizimini ishlab chiqish;

- Moliyaviy – iqtisodiy inqiroz sharoitida sanoat korxonalarini qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqish;
- Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish yo`nalishlarini belgilash.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish asosida korxonada faoliyatini rivojlantirish. Bitiruv malakaviy ishining yangiligi

- Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarini faoliyatida asosiy vositalarni tutgan o`rni va ahamiyatini nazariy asoslandi;

- Sanoat korxonalarida asosiy vositalarning holati va foydalanish samaradorligi ko`rsatkichlari tizimini ishlab chiqildi;

- Bozor munosabatlari sharoitida sanoat korxonalarini qo`llab-quvvatlashning asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqildi;

- Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish yo`nalishlarini belgilandi.

**Bitiruv malakaviy ishining hajmi va tuzilishi.** Diplom ishi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

## **I-bob. Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanishning nazariy asoslari**

### 1.1. Sanoat korxonalarini faoliyatida asosiy vositalarni tutgan o`rni va ahamiyati.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish vazifasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda doimo diqqatimiz markazida bo`lib, iqtisodiy rivojlanish borasida erishgan yutuqlarimizning muhim omili hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan murakkab jarayonlar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, raqobatbardoshligini oshirish uchun uning tarkibiy tuzilishini muttasil takomillashtirib borish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mamlakatning raqobatbardoshligi eng avvalo uning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi orqali ifodalanadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshlik darajasi uning tabiiy resurs salohiyati, mehnat resurslarining soni va sifati (malaka darajasi), ishlab chiqarishning texnik-texnologik modernizatsiyalashganlik darajasi, iqtisodiyot tarkibiy tuzilishining takomillashganligi, davlatning iqtisodiy rivojlanish hamda islohotlar strategiyasi qay darajada ilmiy asoslanganligi va o`zgarishlar jarayonlarini hisobga olganligi hamda boshqa bir qancha omillarga bog`liq.

“Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida real sektor korxonalarini qo`llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog`lomlashtirish tadbirlari ham muhim o`rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko`rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog`lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e`lon qilish hamda moliyaviy-xo`jalik faoliyatini tarkibiy o`zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to`g`ri va samarali yechim hisoblanadi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni yanada rivojlantirishda sanoat korxonalarining o`rni alohida ahamiyatga ega. Bu borada Prezident Islom Karimovning 2010 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari

va 2011 yilga mo`ljallangan eng muhim ustuvor yo`nalishlarga bag`ishlangan O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasida ta`kidlab o`tdilar, jumladan, “Agar o`n yil oldin, ya`ni 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida sanoatning hissasi atigi 14,2 foizni tashqil etgan bo`lsa, 2010 yilda bu ko`rsatkich 24 foizni, transport va aloqaning ulushi tegishli ravishda 7,7 va 12,4 foizni tashqil etdi”<sup>5</sup>.

Bundan ko`rinib turibdiki, sanoat tarmog`i respublikamizda yildan yilga rivojlanib bormoqda. Sanoat korxonalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash hozirgi kundagi muhim masala hisoblanadi. Korxonalar olayotgan daromadining oshirish omillaridan biri bu uning asosiy fondalar bilan ta`minlanganlik darajasidir. Zamonaviy iqtisodiyot fani asosiy fondlarni ma`lum bir iste`mol qiymati ko`rinishida ijtimoiy mehnat asosida yaratiluvchi, ishlab chiqarishning moddiy-buyumlashgan material omillari qatoriga kiritadi. Hozirgi bozor sharoitlarida korxonalar kuchi va vositalari yordamida yaratilgan asosiy fondlar ishlab chiqarish quvvatlarini shakllantirish va ulardan foydalanishga faol ravishda ta`sir ko`rsatuvchi mulk hisoblanadi. Butun xalq xo`jaligi miqyosida asosiy fondlar mamlakatning milliy boyligini tashkil qiladi.

Asosiy fondlar korxonalar ishlab chiqarish vositalarining bir qismi bo`lib, ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etada va o`zining natural-moddiy holatini yo`qotmaydi hamda o`z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotlarga qismlab o`tkazib beradi. Asosiy vositalar qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga o`tkazish jarayoni amortizatsiya deb, ushbu jarayonda to`plangan mablag`lar esa amortizatsiya ajratmalari deb ataladi.

Iqtisodiy maqsadlariga ko`ra, asosiy vositalar ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalariga taqsimlanadi. Ishlab chiqarish asosiy vositalari o`z mohiyatiga ko`ra, korxonaning ishlab chiqarish potentsialini tashkil qilib, ularning tarkibiga quyidagilar kiradi:

---

<sup>5</sup> Karimov I.A. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» . – T.: O`zbekiston, 2010, o`quv qo`llanma.

- ✓ ishlab chiqarish binolari va inshootlari;
- ✓ uzatish qurilmalari;
- ✓ quvvat mashinalari va uskunalari;
- ✓ ishchi mashinalar va uskunalari;
- ✓ transport vositalari;
- ✓ o`lchov va tartibga solish asboblari va qurilmalari;
- ✓ foydalanish muddati bir yildan kam bo`lmagan va qonunchilikda belgilab qo`yilgan qiymatlardagi asboblari va ishlab chiqarish inventari.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishda band bo`lgan barcha mutaxassis va xodimlar soni bilan birgalikda, korxonaning ishlab chiqarish apparati deb ataladi.

Noishlab chiqarish asosiy vositalari korxonada asosiy fondlarining ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etmaydigan qismi bo`lib, shu sababli o`z qiymatini tayyor mahsulotga o`tkazmaydi. Bular qatoriga asosan korxonada balansida turuvchi turarjoy (uy-joy fondi), oshxona, profilaktoriya, klub, bolalar bog`chasi va yashilar, sport-sog`lomlashtirish va boshqa ob`ektlar kiritiladi. Madaniy-maishiy va sog`lomlashtirish yo`nalishidagi noishlab chiqarish asosiy fondlari ishlab chiqarish asosiy fondlari bilan foydalanish muddati, natural shaklning saqlanishi, o`z qiymatini sekin-asta yo`qotishi kabi ko`p jihatlari bilan o`xshashdir.


Mehnat predmetiga o`tkazuvchi ta`siriga ko`ra, asosiy ishlab chiqarish vositalari aktiv va passiv turlarga bo`linadi. Asosiy ishlab chiqarish vositalarining passiv turiga bino va inshootlar, aktiv turiga esa quvvat mashina va uskunalari, ishchi mashina va uskunalari, transport vositalari, texnologik liniyalar, ya`ni biron-bir turdagi mahsulot yaratishda foydalaniluvchi mehnat qurollari kiritiladi.

Korxonada asosiy vositalari tarkibini quyidagi 1.1.1 - chizma ko`rinishida aks ettirish mumkin. Korxonaning aktiv asosiy ishlab chiqarish vositalari eng harakatchan va ahamiyatli hisoblanadi. Fan – texnika taraqqiyoti davomida ko`plab korxonalarda aktiv ishlab chiqarish vositalarining salmog`i ortadi, ularning tarkibi

va ko`rinishi o`zgaradi, asosiy vositalar guruh va turlarining ma`naviy eskirish tufayli almashinish sur`ati tezlashadi.

### 1.1.1 - chizma.

#### Korxonaning asosiy vositalarining tarkibi.



**Chizma:** muallif tomonidan tayyorlandi.

Ishlab chiqarish miqyosining o`shishi va boshqa ijobiy o`zgarishlar sharoitlarida, ba`zan korxonaning asosiy vositalari, jumladan, ishchi mashinalar va uskunalar, ishlab chiqarish binolari, qurilmalar va hokazolar yetmay qoladi. Bunday hollar ro`y berganda korxonaning shartnoma asosida o`ziga kerakli bo`lgan asosiy vositalarni yollaydi va ular ijaraga olingan hisoblanadi. Ijaraga beruvchi va ijaraga oluvchi o`rtasida yuzaga keluvchi mulk munosabatlari lizing deb ataladi (ingl. Lease - ijara).

Asosiy vositalarning umumiy hajmida alohida guruhlarining qiymat bo`yicha o`zaro nisbati asosiy vositalarning turlar bo`yicha tuzilmasini aks ettiradi

hamda amaliyotda foizlarda o`lchanadi. Korxonalar asosiy ishlab chiqarish vositalari tuzilmasining, birinchi o`rinda uning aktiv qismini - mashina va asbob-uskunalarini ko`paytirishga yo`naltirilgan takomillashtirishdan manfaatdor bo`lishi lozim. Ularning ulushi qanchalik yuqori bo`lsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori shunchalik katta bo`ladi va aksincha.

Korxonalar asosiy vositalarining turlar bo`yicha tuzilmasi, ko`p jihatdan kapital qo`yilmalarning texnologik tuzilmasi orqali, jumladan, ularning yangi qurilish va qayta ta`mirlash, amaldagi ishlab chiqarishni kengaytirish va qayta qurollantirish bilan avvaldan belgilab qo`yilgan bo`ladi. Asosiy vositalarning turlar bo`yicha tuzilmasiga ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va konsentratsiya qilish darajasi ham katta ta`sir o`tkazadi. Yirik korxonalar, ishlab chiqarishni vositalar bilan ta`minlashda va fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishda kichik va o`rta korxonalarga qaraganda ko`proq imkoniyatga ega. Biroq kichik korxonalar harakatchanroq, ularning boshqaruvi moslashuvchanroq bo`lib, natijada ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish osonroq kechadi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni turli xil ko`rsatkichlari mavjud bo`lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo`lib o`rganamiz:

- Umumlashtiruvchi va qiymat ko`rsatkichlari, ya`ni ular asosiy vositalarning turli guruhlarda dinamika va statistik baholashda, tahlil qilishda va zaxiralarni aniqlashda foydalaniladi.
- Xususiy va natural ko`rsatkichlar, ya`ni ishlab chiqarish vositalarining faol qismi - ishchilar, mashina va jihozlardan foydalanish darajasini ifodalaydi.
- Asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni xususiy va natural ko`rsatkichlarini uch guruhga birlashtirish mumkin:
- asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning vaqt bo`yicha darajasini aks ettiruvchi ekstensiv (jihozlardan vaqt bo`yicha) foydalanish ko`rsatkichi;
- asosiy vositalardan quvvati unumdorligi bo`yicha foydalanish darajasini aks ettiruvchi intensiv (jihozlarni unumdorligi) foydalanish ko`rsatkichi;

- barcha omillar ta'sirini hisobga oluvchi, ham intensiv ham ekstensiv, asosiy vositalardan foydalanishning integral ko'rsatkichi.

Birinchi guruhga - jihozlardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti, jihozlar ishining o'zgarishi koeffitsienti, jihozlarni ish bilan band qilmoq koeffitsienti, jihozlar ishi smena tartibi (rejimi) vaqti koeffitsienti.

Jihozlardan ekstensiv foydalanish koeffitsienti uskunalardan amalda haqiqiy foydalanilgan vaqtini ifodalaydi va qo'yidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$K_{eks} + t_x = tr.$$

bu yerda,  $t_x$  - jihozlarning haqiqiy ishlagan vaqti, soat;

$tr$  - jihozlarning reja (me'yor) bo'yicha ishlash vaqti (korxonada ish rejimi va rejali ta'mir o'tkazish uchun kerak minimal vaqtni hisobga olib, o'rnatiladi).

Misol. Agar 8 soatlik smenada, ta'mir o'tkazish uchun rejalashtirilgan ishlar vaqti 1 soat, dastgohning haqiqiy ishlagan vaqti 6 soat bo'lsa, ekstensiv foydalanish koeffitsienti:

$$K_{eks} + 6 = (8 - 1) + 0,85$$

Demak dastgohning (stanok) rejalashtirilgan ish vaqtidan 85 % foydalanilgan.

Jihozdan ekstensiv foydalanish uning ishining smenalik koeffitsienti bilan ham tavsiflanadi. Smenalik koeffitsienti berilgan turdagi jihozlarning kun davomida ishlaganlari umumiy sonini eng katta smenada ishlagan dastgohlar soniga yoki ish o'rinlari soniga nisbati orqali aniqlanadi va qo'yidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$K_{sm} + M_{xs} + Au$$

**Bu yerda:**  $K_{sm}$  – smenalik koeffitsienti,

$M_{xs}$  - kun davomida haqiqatda ishlagan mashinalar soni,

$Au$  - o'rnatilgan jihozlarni umumiy soni.

Misol Smenalik koeffitsientning soddalashtirilgan hisobi qo'yidagicha: tsexda 270 dona jihoz o'rnatilgan, ulardan birinchi smenada 200 dastgoh, ikkinchi smenada 190 dastgohlar ishladi.

$$K_{sm1}=(200/270)+0,74. \quad K_{sm2}=(190/270)+0,70.$$

Demak, smenalik koeffitsienti 1 smenada 74 % va 2 smenada 70 % ga teng bo`lgan. Bu koeffitsient har bir jihoz yil davomida o`rtacha necha smena ishlaganligi ko`rsatadi.

Jihozlar ishining smenalik koeffitsientini oshirish korxonaga iqtisodiga katta ahamiyatga ega.

Jihozlarning smenalik ishini oshirishning asosiy yo`nalishlari:

- ommaviy ishlab chiqarishni va jihozlarni ish bilan yuklanishini o`rnatishni ta`minlovchi ish o`rnining mutahassislashtirilganlik darajasini oshirish;
- ishning bir vazndaligini oshirish;
- ish o`rniga xizmat ko`rsatishni tashkil etishda, dastgoh ishchilariga tayyorlov mahsulotlari, uskunalari bilan ta`minotida kamchiliklar bilan bog`liq to`xtashlarni kamaytirish;
- ta`mir ishlarini yaxshi tashkil etish, ta`mir ishini tashkil etishning ilg`or usullarini qo`llash;
- asosiy va ayniqsa yordamchi ishchilarning mehnatini mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash. Bu ishchi kuchini bo`shatish va uni og`ir yordamchi ishdan ikkinchi va uchinchi smenadagi asosiy ishga o`tkazishga imkon beradi.

Jihozlarni ish bilan yuklash koeffitsienti ham jihozlarni vaqt ichida foydalanishni bildiradi. U asosiy ishlab chiqarishda bo`lgan mashina narxining hammasi uchun o`rnatiladi va jihozda tayyorlanadigan hamma mahsulotlar mehnatga talabchanligining jihoz ishining vaqt fondiga nisbati kabi hisoblanadi. Shunday qilib, jihozlarni ish bilan yuklash koeffitsienti smenalik koeffitsientidan farqli o`laroq mahsulotlarning mehnatga talabchanligi haqida ma`lumotlarni hisobga oladi.

Amalda, ish bilan ta`minlanganlik koeffitsienti, smenalik koeffitsientining yarmiga (ikki smenalik ish rejimida) va uchdan bir qismiga (uch smenalik rejimda) teng deb olinadi.

Jihozlardan intensiv foydalanish koeffitsenti asosiy texnologik jihozning amaldagi unumdorligining uning normativ (me`yoriy) unumdorligiga nisbati bilan aniqlanadi. Ya`ni progressiv, texnik asoslangan unumdorlik. Bu ko`rsatkichni hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_{int.} + M_f / M_t$$

bu yerda,  $K_{int.}$  - jihozlardan intensiv foydalanish koeffitsenti

$M_f$  – vaqt birligida jihozda ishlab chiqarilgan mahsulotning amaldagi miqdori;

$M_t$  - vaqt birligida jihozning texnik asoslangan mahsulot ishlab chiqarishi (jihozning pasport ma`lumotlariga asosan olinadi).

Misol. Dastgoh smena davomida 5 soat ishladi. Uning 3 soatlik bekor turishini faraz qilib, jihozdan intensiv foydalanish koeffitsientini hisoblab, uning 5 soat ichida undan foydalanish samaradorligini tahlil qilamiz. Faraz qilaylik, dastgohning pasport bo`yicha quvvati bir soatda 200 dona mahsulot birligiga teng, 1soat davomida haqiqatdan ham u 180 dona mahsulot birligini ishlab chiqardi. Unda,

$$K_{int.} + 180 / 200 = 0,9$$

Demak, jihoz quvvatidan 90 % foydalanildi.

Asosiy vositalardan foydalanishning uchinchi guruh ko`rsatkichlariga, jihozlardan foydalanishning integral koeffitsienti, ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish koeffitsienti, fond qaytimi (fonda otdacha) fondga talabchanlilik (fondayomkost ) koeffitsientlari kiradi.

Jihozlardan foydalanishning integral koeffitsenti jihozlardan foydalanishning ekstensiv va intensiv koeffitsientlarining hosilasi sifatida aniqlanadi va jihozlarni vaqt bo`yicha hamda quvvati bo`yicha ekspluatatsiya qilinishini tasvir etadi.

bizning misolda  $K_{ekc.} = 0,85$ ;  $K_{int.} = 0,9$  demak, integral foydalanish koeffitsienti:

$$K_{int.f.} + K_{ekc.} \times K_{int.} \quad \text{ya`ni } 0,85 \times 0,9 + 0,76$$

Shunday qilib, bu ko`rsatkich miqdori hamma vaqt oldingi ikki ko`rsatkich miqdorlaridan past, chunki u jihozlardan ekstensiv va intensiv foydalanish kamchiliklarini bir yo`la hisobga oladi. Ana shu ikki omillarni hisobga olganda dastgohdan faqatgina 76% foydalanilgan.

Asosiy fondlardan yaxshi foydalanishning natijasi hammadan oldin ishlab chiqarish hajmining oshishidir. Shuning uchun asosiy ishlab chiqarish vositalardan foydalanish samaradorligining umumlashtiruvchi ko`rsatkichi ishlab chiqarilgan mahsulotni uni ishlab chiqarishida ishlatiladigan jami asosiy fondlar bilan andozalash tamoyili asosida qurilishi kerak.

Asosiy ishlab chiqarish vositalarining o`rtacha yillik qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$F_{uk} + F_1 = F_k / 2$$

bu yerda,  $F_1$  - korxonaning asosiy ishlab chiqarish vositalarining yil boshidagi qiymati, so`m;

$F_k$  - yil davomida yangi qo`shilgan asosiy ishlab chiqarish vositalar qiymati, so`m;

$F_2$  - yil davomida eskirib chiqqan asosiy ishlab chiqarish vositalarining qiymati, so`m;

Fond qaytimi (fond otdacha) asosiy vositalardan foydalanishning eng muhim ko`rsatkichidir.

Fond qaytimi – bir so`mlik asosiy vositaga to`g`ri keluvchi tovar mahsulotni ifodalaydi, uni aniqlash uchun qo`yidagi formula ishlatiladi:

$$F_k + \frac{F}{Q}$$

bu yerda,  $Q$  - tovar yoki yalpi sotib bo`lingan mahsulot hajmi, so`m;

$F$  - korxonaning asosiy ishlab chiqarish vositaining o`rtcha yillik qiymati.

Misol. Korxonaga 150 mln so`mlik asosiy vositaga ega, yil davomida 800 mln so`mlik mahsulot ishlab chiqargan bo`lsa.

$$F_k + 800/150 + 5,3$$

Fond qaytimi (fond otdacha)ni oshirish muhim xalq xo'jaligi vazifasi, bu ayniqsa bozorga o'tish davrida dolzarb.

Fan – texnika taraqqiyoti sharoitida fond qaytimi (fond otdacha)ning o'sishi murakkablashadi, chunki mehnat sharoitini yaxshilash, tabiatni asrash va hokazolarga yo'naltirilgan harajatlarning ko'payishi, joriy etishga ehtiyojmand jihozlarni almashtirilishi bu ko'rsatkichni pasaytiradi.

Mahsulotning fond sig'imi – fond qaytimi (fond otdacha)ning teskari qiymati bo'lib, har bir so'm chiqarilgan mahsulotga asosiy fondlar qiymatining ulushini ko'rsatadi. Agar fond qaytimi (fond otdacha) oshishga moyil etilishi lozim bo'lsa, mahsulotning fondga talabchanligi esa pasayishga mayl bo'lishi kerak, ya'ni

$$F_s + F \setminus =$$

Bu yerda;

$F_s$  – fond sig'imi

$Q$  - tovar yoki yalpi sotib bo'lingan mahsulot hajmi, so'm;

$F$  - korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondining o'rta yillik qiymati.

Bizning misol bo'yicha  $F_s + 150/800 + 0,18$

Kapital ta'mirlash sarflari iqtisodiy samaradorligi ( $Kis$ ):

$$Kis + Yatb - Yaks + Uf$$

bu yerda:

$Yatb$  - yangi texnika bahosi, so'm.

$Yaks$  - yangi texnika kapital ta'mirlash sarflari, so'm.

$Uf$  - ta'mirlangan va yangi texnikadan foydalanish orasidagi sarflarni o'rtacha yillik farqi, so'm.

Mashina va qurilmalardan foydalanish koeffitsienti:

$$Kob + M / Mob$$

bu yerda:  $M$  - haqiqiy ishlayotgan mashina va qurilma soni (quvvati) dona, so'm;

$Mob$  - mavjud mashina va qurilma soni (quvvati), dona, so'm.

O`rnatilgan mashinalardan foydalanish koeffitsienti ( $K_x$ ):

$$K_x + M_x / K_s$$

bu yerda:  $M_x$  - harakatdagi mashina va qurilma soni, dona.

$K_s$ - o`rnatilgan mashina va qurilma soni, dona.

Korxonalar ishining samaradorligi ko`p miqdorda mehnatni fond bilan qurollanganligi darajasi bilan bog`liqdir. Bu ko`rsatkich korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondi qiymatining ishchilar soniga nisbati sifatida aniqlanadi. Bu miqdor uzluksiz o`smog`i kerak, chunki texnik-qurollanish bunga bog`liq, demak mehnat unumdorligiga ham bog`liq.

## **1.2. Sanoat korxonalarida asosiy vositalarning holati va foydalanish samaradorligi ko`rsatkichlari tizimi.**

Mamlakatimizda sanoat korxonalarini faoliyatida yangi turdagi mahsulotlar yaratish davom etmoqda. Bu esa ushbu tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ijobiy ta`sir ko`rsatmoqda. Jumladan, mamlakatimiz sanoat korxonalarini tomonidan o`tgan yili 160 dan ortiq turdagi yangi tovar va mahsulotlar, jumladan, mutlaqo yangi texnologik platforma negizida "Orlando" yengil avtomobilini ishlab chiqarish yo`lga qo`yildi. Shu bilan birga, katta hajmda yuk tashiydigan "MAN" avtomobillarini, energiya tejaydigan lampalar, "LG" rusumidagi jahonga mashhur muzlatkichlarni yig`ish, kaliy o`g`itlari va boshqa muhim mahsulotlarni ishlab chiqarish boshlab yuborildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2014 yilda 1 ming 176 ta loyiha amalga oshirildi. Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobar oshdi, import o`rnini bosish bo`yicha yakuniy samaradorlik 3 milliard 400 million dollarni tashkil qildi va bu 2010 yilga nisbatan 1,2 barobar ko`p demakdir.

Korxonalar o`rtasida kooperatsiya aloqalari mustahkamlanmoqda, bu jarayonga kichik korxonalar va xususiy biznes sub yektlari tobora keng jalb qilinmoqda. 2014 yilda o`tkazilgan Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsion birjada dunyoning 71 mamlakatidan 700 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya

vaqillari qatnashdi, 500 dan ortiq yangi turdagi mahsulot namoyish etildi, qiymati 3 trillion 600 milliard so`mlik shartnomalar imzolandi. Bu raqam oldingi yarmarkadagi ko`rsatkichga nisbatan 1,4 marta ko`pdir. Yarmarkada umumiy qiymati 2 milliard 700 million dollarlik eksport bitimlari tuzildi va bu 2012 yil darajasidan 1,3 barobar ortiqdir.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to`g`risida "O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida sanoat tarmoqlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda yuqori texnologiyaga asoslangan zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun keng imkoniyatlar yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalar joriy etilishini rag`batlantirish<sup>6</sup> masalasiga xam alohida e`tibor qaratilgan.

Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini aniqlashda ko`rsatkichlarni aniqlash muhim masala hisoblanadi. Xo`jalik amaliyotida asosiy vositalar natural va qiymat ko`rinishida hisobga olinadi. Agar asosiy vositalarni natural baholash – ishlab chiqarishni texnik jihatdan qayta qurollantirish va zamonaviylashtirish masalalarini hal qilish, asbob – uskunalarni ta`mirlash uchun ularning guruh va turlari bo`yicha grafiklar tuzish, shuningdek, ta`mirlash vositalariga bo`lgan ehtiyojni aniqlash imkonini bersa, qiymat bo`yicha baholash esa, asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishni rejalashtirish, ularning mavjud hajmini aniqlash, amortizatsiya hajmini belgilash, asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini tahlil qilish va hokazolarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy vositalarni baholashning quyidagi usullari mavjud: boshlang`ich qiymat bo`yicha - asosiy vositalarni yaratish yoki sotib olish uchun sarflangan xarajatlar majmuidan iborat bo`lib, asosiy fondlar yoki ularning alohida qismlarini

---

<sup>6</sup> “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” Davlat dasturi to`g`risida "O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 2011 yil 9 - fevral.

foydalanishga topshirish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog`liq bo`lgan ularni keltirish, o`rnatish kabi xarajatlarni hisobga olgan holda yuzaga keluvchi qiymat.

Tiklanish qiymati bo`yicha - asosiy vositalar yoki ularning biron-bir qismini (binolar, qurilmalar, mashinalar, ishlab chiqarish uskunalari va hokazo) hozirgi paytdagi inflyatsiya va boshqa omillarni hisobga olgan holda baholash. Baholashning bu usuli ob`ektning hozirgi paytdagi qayta ishlab chiqarish davrida qancha turishini ko`rsatadi. Korxonalar asosiy vositalarining tiklanish qiymati, taftish va inventarizatsiya paytida, mamlakat miqyosida va davlat chora-tadbiri sifatida esa, asosiy vositalarni qayta baholash paytida amalga oshiriladi.

Qoldiq qiymati bo`yicha - asosiy vositalarning eskirishini inobatga olgan holda, birlamchi va qayta tiklash qiymatlari o`rtasidagi farq ko`rinishidagi baholashdir. Boshqacha qilib aytganda, bu asosiy vositalarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga hali o`tkazilmagan qismidir. Korxonalar tomonidan foydalanilmaydigan hamda hisobdan chiqarishga yoki sotib yuborishga mo`ljallangan asosiy vositalar ham, ko`pincha qoldiq qiymati bo`yicha, mazkur xo`jalik yilidagi narxlarida baholanadi.

Iqtisodiyotning globallasuvi hamda hisob va hisobotlarning mukammallasuvi, jumladan, milliy hisob standartlarining jahon standartlari talablari darajasiga keltirilishi tufayli, garchi asosiy vositalar, asosiy fondlarning pul ko`rinishidagi ifodasi sifatida avvaldan qo`llanib kelgan bo`lsada, hayotimizga "asosiy kapital", "asosiy vositalar" kabi atamalar endilikda keng ravishda kirib kelmoqda.

Korxonalar asosiy vositalarini baholashning turlarini quyidagi chizma ko`rinishida aks ettirish mumkin (1.2.1 - chizma)

Hozirgi kunda amaliyotda asosiy vositalarning korxonalar balansi va hisobotlarida aks ettiriluvchi (ya`ni, boshlang`ich, belgilangan tartibda o`tkaziluvchi qayta baholashdan keyin esa tiklanish), hisobga olish qiymati balans qiymati deb ataladi. Bundan asosiy vositalarning qoldiq qiymatini asosiy

vositalarning balans qiymatidan eskirish summasini ayirib tashlash yordamida topish mumkinligi anglashiladi.

Qabul qilingan baholash usuli va korxonada aks ettiriluvchi buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosida, korxonada asosiy ishlab chiqarish vositalarining o'rtacha yillik qiymati ( $F_{o'p}$ ) belgilanib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi :

$$F_{o'p} = F_n + \frac{F_p T_1 - F_v T_2}{12}$$


Bu yerda:

$F_n$  – asosiy ishlab chiqarish vositalarining yil boshidagi qiymati;

$F_p$  – yil davomida kelib tushgan (foydalanishga topshirilgan) asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati;

### 1.2.1. -chizma.

#### Korxonada asosiy vositalarini baholash



Chizma: muallif tomonidan tayyorlandi.

$F_v$  – yil davomida ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo`q qilingan) asosiy vositalar qiymati;

$T_1$ - foydalanishga topshiriluvchi asosiy ishlab chiqarish vositalari amalda bo`luvchi o`rtacha muddati (oylarda), qabul qilingandan keyingi oydan boshlab;

$T_2$  – ishlab chiqarishdan chiqarilgan (yo`q qilingan) asosiy ishlab chiqarish vositalari foydalanilmaydigan o`rtacha muddat (chiqarilgan oydan to yil oxirigacha).

Asosiy vositalarni boshlang`ich yoki tiklanish qiymati bo`yicha baholashdan tashqari eskirish summasi ham hisobga olinadi. Asosiy vositalar jismoniy va ma`naviy jihatdan eskirishi mumkin.(1.2.2.- chizma)

Jismoniy (moddiy) eskirish asosiy vositalarning birlamchi xislatlarini ishlab chiqarishda foydalanish va tabiiy eskirish natijasida yo`qotishdan yuzaga keladi. U asosan bir xilda kechmaydi hamda ko`p jihatdan iqlimning ta`siri, asosiy fondlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish, jumladan, xodimlarning malakasiga ham bog`liq bo`ladi.

Jismoniy eskirishni (IF) quyidagi formula asosida hisoblab topish mumkin:

$$IF = \frac{T_f}{T_n} \times 100; \quad \text{yoki} \quad IF = \frac{I}{P_s} \times 100.$$

Bu yerda:

$T_f$  - asosiy vositalarning haqiqiy xizmat qiluvchi muddati;

$T_n$  - asosiy vositalar xizmat qilishi kerak bo`lgan normativ muddat;

$I$  - hisoblangan amortizatsiya summasi (eskirish summasi);

$P_s$  – asosiy vositalarning boshlang`ich(qayta tashkil qilish) qiymati.

$$IM_1 = \frac{P - V}{P} \times 100; \quad IM_2 = \frac{P_n - P_s}{P_n} \times 100.$$

Bu yerda:

$P$  - asosiy vositalarning to`liq boshlang`ich qiymati;


$V$  - asosiy vositalarning tiklanish qiymati;

$P_n$ - yangi texnikaning unumdorligi.

Ma`naviy eskirish - asosiy vositalarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo`qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy vositalar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy vositalarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta`siri ostida, yanada samaraliroq fondlarning paydo bo`lishi natijasida ro`y beradi.

### 1.2.2.-chizma.

#### Asosiy vositalarning eskirish turlari



*Chizma: muallif tomonidan tayyorlandi.*

Ma`naviy eskirish - asosiy vositalarning qadrsizlanishi yoki texnik jihatdan muddatidan avval ish qobiliyatini yo`qotilishidir. U ikki shaklda yuzaga keladi: birinchi shaklda asosiy vositalar ularning ishlab chiqarish qiymatlari pasayishi natijasida qadrsizlansa, ikkinchi shaklda asosiy vositalarning qadrsizlanishi yangi, fan-texnika taraqqiyoti ta`siri ostida, yanada samaraliroq vositalarning paydo bo`lishi natijasida ro`y beradi. Asosiy vositalar ma`naviy eskirishining yuqorida keltirilgan shakllarini quyidagi tarzda aniqlash mumkin:

Asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarish, ya'ni jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan asosiy vositalarning o'rnini iqtisodiy to'ldirish uchun korxonada bu vositalar qiymatidan amortizatsiya ajratmalarini ayirib tashlaydi hamda bu ajratmalar keyinchalik xarajatlar sifatida mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Amortizatsiya ajratmalari quyidagi formula asosida aniqlanuvchi amortizatsiya normalari ( $N_a$ ) asosida amalga oshiriladi:

$$N_a = \frac{A}{P} * 100$$

Bu yerda:

A - amortizatsiya ajratmalari;

P - asosiy fondlarning to'liq boshlang'ich qiymati.

Yillik amortizatsiya ajratlari (A) miqdori quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$A = \frac{P + R_k + M - O}{T}$$

Bu yerda:

$R_k$  - asosiy vositalar xizmat qilgan muddat davomida kapital ta'mirlashga sarflangan xarajatlar;

M - uskuna, mashina va qurilmalarni, ular xizmat qilgan davr mobaynida modernizatsiya qilishga sarflangan xarajatlar;

O - asosiy vositalarning qoldiq (likvidatsion) qiymati;

T - asosiy vositalarning xizmat qilish muddati, yil.

Amalda amortizatsiya mablag'lari asosiy vositalarni to'liq qayta tiklash (renovatsiya), kapital ta'mirlash va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun alohida ravishda yo'naltiriladi. Bundan kelib chiqqan holda amortizatsiya normasi ikki qismdan - vositalarni renovatsiya qilish ( $N_v$ ) hamda kapital ta'mirlash va modernizatsiya qilish ( $N_r$ ) uchun ajratiluvchi mablag'dan iborat bo'ladi.

Birinchi holda amortizatsiya normasi quyidagi formula:

$$N_v = \frac{P - O}{TP} \times 100;$$

ikkinchi holda esa:

$$Nr = \frac{R_{\kappa} + M}{TP}$$

asosida aniqlanadi

Ishlab chiqarish jarayonida asosiy vositalar asta – sekinlik bilan eskirishi sababli, ularning ish qobiliyatini ta`mirlash orqali tiklash zaruriyati tug`iladi. O`z vaqtida ta`mirlash asosiy vositalar muddatidan oldin ishdan chiqishining oldini oladi hamda ularning xizmat qilish muddati va unumdorligini oshiradi. Asosiy vositalarni ta`mirlash kapital, o`rta va joriy turlarga bo`linadi. Bino va inshootlarni ta`mirlash o`z mazmuni, talab qilinuvchi muddat va mablag`larga ko`ra, mashina va uskunalarni ta`mirlashdan farq qiladi.

O`rtacha ta`mirlash texnik mazmuni, murakkabligi, bajariladigan ish hajmi va davriyligiga ko`ra, kapital ta`mirlashdan farq qiladi hamda sarflanuvchi mablag`, vaqt va kuchni nisbatan kamroq talab etadi. Joriy ta`mirlash kabi u ham mashina yoki uskunadan foydalanuvchi korxonaning o`zida amalga oshirilishi mumkin.

Joriy ta`mirlashda asosan asbob-uskunalar tozalanadi, moylanadi, tekshiriladi, mayda kamchiliklari bartaraf qilinadi, ya`ni uskunalarining foydalanishga doimiy tayyorligi ta`minlanadi.

Asosiy vositalarni ta`mirlash va ularga xizmat ko`rsatish majmuasi rejali-oldini oluvchi ta`mirlash tizimiga (ROOT) birlashtiriladi va korxonada bosh mexanigi tomonidan boshqariladi. Deyarli har bir korxonada ROOT o`tkazilishini qayd qilish jurnallari mavjud bo`lib, ularda profilaktika va ta`mirlash tadbirlarini o`tkazish tartibi va grafigi belgilab qo`yiladi.

Ta`mirlash ishlari tufayli korxonada asosiy vositalarning joriy ekspluatatsiyaga tayyorligini ta`minlaydi. Biroq shu bilan bir qatorda korxonada asosiy vositalarni yaratish, foydalanish, amortizatsiya, qayta tiklash kabi bosqichlarni o`z ichiga oluvchi takror ishlab chiqarish amallarini doimiy ravishda bajarishga intilishi lozim. Bu bosqichlarni quyidagi chizma yordamida aks ettirish mumkin.

Takror ishlab chiqarish tsiklida asosiy vositalarni yaratish jarayoni korxonadan tashqarida amalga oshiriladi hamda asosan qurilish sohasi, mashinasozlik, asbobsozlik hamda asosiy vositalarni yaratish bilan shug`ullanuvchi boshqa sohalar bilan bog`liq bo`ladi. Asosiy vositalarni takror ishlab chiqarishning qolgan bosqichlari korxonada hududida amalga oshiriladi. Biroq barcha hollarda ham asosiy vositalarni takror ishlab chiqarish tufayli korxonalar ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda rivojlanib borayotgan bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiy va texnik barqarorlikka erishishlarini ta`minlaydi.

## **II-bob. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining viloyatimiz iqtisodiyotida tutgan o`rni.**

2.1. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati va uning asosiy vositalardan foydalanishi holati tahlili.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati O`zbekiston Respublikasi, Namangan viloyati, Pop tumani Pop temir yo`l bekatida joylashgan. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati Namangan viloyati Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo`llab – quvvatlash boshqarmasining 1995 yil 1 mardagi № 36/0850 - buyrug`i bilan davlat negizida tashkil etilgan hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 avgustdagi № 376-sonli, “O`zdonmahsulot” davlat aktsiyadorlik korporatsiyasini “O`zdonmahsulotlari aktsiyadorlik kompaniyasiga aylantirish to`g`risida”gi qarori, “Chustdonmahsulot” va “Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyatlarini qo`shilishi munosabati bilan viloyat davlat mulkini boshqarish boshqarmasi tomonidan 2003 yil 15 dekabrda № 512 – sonli buyrug`ini 2 – bandi quyidagicha tahrirda bayon etildi.

“Popdonmahsulot” ustav fondi –50000,0 ming so`m, “Chustdonmahsulot” ustav jamg`armasi – 15603,0 ming so`m, qo`shgan holda umumiy ustav fondi – 65603,0 ming so`m, aktsiyalar soni – 65603 dona, aktsiyalarning nominal qiymati – 1000 so`m, shundan imtiyozli aktsiyalar 149 dona – 149 ming so`m.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 14 martdagi PQ – 29 sonli, 2005 yil 31 maydagi PQ – 90 sonli qarorlarini va Respublika davlat mulkini boshqarish davlat qo`mitasining 2005 yil 7 iyundagi 59 k - PO sonli buyrug`ini bajarish maqsadida 2005 yil 22 iyun kuni Namangan viloyat davlat mulkini boshqarish boshqarmasining 142\4 sonli buyrug`i chiqdi. 2005 yil 24 iyun kuni Pop tuman hokimligidan 499 - sonli raqam bilan ro`yxatdan o`tkazildi. Jamiyat ustav jamg`armasi 99074 ming so`m bo`lib, 99074 dona aktsiyadan tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi PF-4053 sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 17 dekabrda 316-sonli qaroriga muvofiq, jamiyat ustav fondini 400 ming AQSh dollari to'g'risidagi farmonini bajarib, aksiyalar ulushi quyidagi 2.1.1-jadvalda keltirilganidek taqsimlandi.

### 2.1.1-jadval

#### “Popdonmahsulot” aksiyadorlik jamiyati aksiyalarini taqsimlanishi

T/№	Jamiyat ta'sischi	Ulushi, %	Aksiyalar miqdori, dona	Aksiyalar qiymati, ming so'm
1	“O'zdonmahsulot” aksiyadorlik kompaniyasi	52,79	343130	343130000
2	Mulk qo'mitasi	40,03	260220	260220000
3	XIF va boshqalar	7,18	46501	46501000
4	Imtiyozli aksiyalar	0,0	149	149000
Jami:		100	650000	650000

**Manba:** “Popdonmahsulot” aksiyadorlik jamiyati ma'lumotlari

Asosiy vositalardan samarali foydalanish maqsadida jamiyat asosan Pop va Chust tumanidagi shirkat, fermer va boshqa xo'jaliklarda don qabul qilib olib, tayyorlab qayta ishlab ikki turdagi oliy va birinchi navli un va omuxta yem hamda non mahsulotlari ishlab chiqaradi. Boshqa donni qayta ishlash korxonalaridan keltirilgan un va yorma mahsulotlarni qabul qilish hamda realizatsiya qilishga ixtisoslashtirilgan. “Popdonmahsulot” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy natijalari 2014 yil 1 oktyabr holatiga quyidagicha ko'rinish aks etgan (2.1.2-jadval). Umuman olganda korxonalarining iqtisodiy ko'rsatkichlari avvalo mazkur korxonaning ichki auditi va kelgusi faoliyatining mezonlarini sarhisob qilish imkoniyatlarini beradi.

Ushbu jadval ma'lumotidan ayon-ki, aylanma mablag'lari – 3391935 ming so'm, debitorlik qarzlari – 5444851 ming so'm, kreditorlik qarzlari – 7880954 ming so'm, korxonaning sof foydasi – 45228 ming so'm, rentabellik darajasi – 0,5 % ni tashkil etdi.

## 2.1.2-jadval

### “Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy natijalari

(2014 yil 1 oktyabr holatiga)


T/№	Ko`rsatkichlar	ming so`m hisobida
1.	Aylanma mablag`lari	3391935
2.	Debitorlik qarzlari	5444851
3.	Kreditorlik qarzlari	7880954
4.	Korxonada sof foydasi	45228
5.	Rentabellik darajasi %	0,5 %

**Manba:** “Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyati ma`lumotlari

“Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyati Pop tumanidan 27900 tonna va Chust tumanidan 28900 tonna don qabul qilib olib, undan 25500 tonna un hamda 12500 tonna omuxta yem mahsulotlari ishlab chiqaradi. Tegirmon tsexi bir sutkada 90 tonna 1 yilda 27000 tonna un; omuxta yem bir sutkada 50 tonna 1 yilda 15000 tonna; non mahsulotlari suikada 3 tonna 1yilda 720 tonna mahsulot ishlab chiqarib, xalq iste`mol ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Jamiyatda 12500 tonna don saqlovchi temir sig`im mavjud.

Asosiy vositalar va ularning saqlanishi va ulardan samarali foydalanish “Popdonmahsulot” aktsiyadorlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarish bosqichlariga va ishlab chiqarishni amalga oshirish mexanizmlari o`ziga xoslini ko`rishimiz mumkin. (2.1.1 – rasm) Korxonada faoliyatida mahsulot ishlab chiqarish jarayoni muhim ahamiyatga ega bo`ladi. Shu boiz barcha ichlab chiqaruvchilar asosiy e`tiborni mazkur jarayonga qaratadilar. Aynan bu holat barcha iqtisodiy jarayonlarni belgilab beruvchi omillar sarasiga kiradi.

### Mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bosqichlari



**Manba:** Muallif tomonidan tayyorlandi.

Bundan tashqari jamiyat tarkibida Chust don qabul qilish filiali va Xalqabod don qabul qilish shaxobchasi mavjud boʻlib, 2015 yilda Davlat resurslariga boshqoli don xarid qilish boʻyicha Pop Chust tumanlari shirkat, fermer va boshqa xoʻjaliklari bilan 681 ta kontraktsiya shartnomalari tuzilgan. Umumiy don qabul qilish hajmi 56800 tonnani tashkil etadi. Shuningdek, Pop, Chust tumanlariga ekish uchun jamiyat tomonidan 5250 tonna urugʻlik yetkazib berildi. Bundan tashqari kerakli boʻlgan xom ashyolar jamiyat omuxta yem mahsulotini toʻyumliligini oshirish maqsadida fermer xoʻjaliklari va boshqa korxonalar bilan makka doni, arpa va ut uni xom ashyosi uchun qoʻshimcha shartnomalar tuzilgan. Xarid qilish manbaalari pul oʻtkazish yoʻli bilan amalga oshiriladi.

Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining oʻzgarishini quyidagi jadvalda kuzatishimiz mumkin (2.1.3 – jadval). Koʻp hollarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi talab va taklif tamoyillarining oʻzgarishi natijasida yuzaga keladi. Baʼzi holatlarda esa ortiqcha mahsulot ishlab chiqarish resurslardan foydalanish samaradorligini ham sezilarli darajada kamaytiradi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishi bilan uni rializatsiya qilish shartlari ham bir-biriga teng boʻlishi zarur, aks holatlarda esa korxonada inqirozga yuz tutishi ham muqarrar boʻlib qoladi.

## 2.1.3-jadval

### Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmining o'zgarishi

(tonna hisobidan)

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o'zgarishi (-, +)
1	Un jami	25041	24953	25050	9
2	Omuxta yem	11790	11800	12000	210
3	Non	541	657	692	151

**Manba:** «Popdonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.1.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadi-ki, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish xajmi yildan yilga ortib borganligini ko'rish mumkin. 2012 yil «Popdonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatida 25041 tonna 1-2 navli un ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2014 yil 25050 tonna 1-2 navli un ishlab chiqarildi. 2013 yilda esa bu ko'rsatkich 24953 tonnani tashkil etgan. Bunga sabab aholi sonini ortib borishi hamda unga bo'lgan talabning oshishi bilan birgalikda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi bilan ham bog'liq ekanligini ta'kidlash joizdir.

Asosiy vositalarni hajmi va ularning umumiy qiymatini o'zgarishi o'z navbatida samarali foydalanishni taqazo etadi. Korxonaning ikkinchi omuxta yem ishlab chiqarish bo'limida ham 2012 yil 11790 tonna, 2013 yil 11800 tonna, 2014 yil 12000 tonna omuxta yem ishlab chiqarilib turli xo'jalik va kichik biznes sub'ektlariga sotilgan bo'lib, korxonada faoliyatini rivojlantirish bo'yicha mahsulotlarni diversifikatsiyalash asosida non va non mahsulotlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yilgan. Natijada 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 151 tonna ortib, 692 tonnaga yetdi. Ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotlarning amaldagi narxlardagi ifodasini quyidagi 2.1.4 – jadvalda to'liq keltirilgan. Korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi bilan birgalikda bugungi kunda uning sifat darajasi ham yuqori bo'lishi zarur. Aholi daromadlarini ortib borishi o'z navbatida is'temol tovarlarini sifatli bo'lishi va talab ham shunga mos ravishda o'zgarib borishini barchamiz yaxshi bilamiz. Bu bozor tamoyillarini eng asosiy qoidalari

bo`lib, rivojlanayotgan mamlakatlarda bunga jiddiy ahamiyat berib kelinadi. Shunday ekan korxonalar o`rtasida sifat uchun raqobat kurashi keskin tus oladi.

#### 2.1.4 -jadval

#### Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi

(ming so`m hisobida)

№	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o`zgarishi (-, +)
1	Solishtirma narhlarda	19760169	20895915	22391010	2630841
2	Amaldagi narhlarda	19770185	21555956	22500821	2730636
3	Iste`mol mollari	19629990	21991513	23831397	4201407

**Manba:** «Popdonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatining ma`lumotlari.

Jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, korxonaning ishlab chiqargan mahsulot hajmi qiymati ko`rsatkichlarda yildan yilgan ortib borgan. Korxonada ishlab chiqarishining solishtirma narhlardagi qiymati 2012 yilda 19 mlrd. 760 mln. 169 ming so`mlik mahsulot ishlab chiqargan bo`lsa 2014 yilga kelib 2 mlrd. 630 mln. 841 ming so`m ko`p, ya`ni 22 mlrd. 391 mln. 10 ming so`mlik mahsulot ishlab chiqargan. Bu o`shish o`z o`zidan bo`lmagan albatta: 2012 yil korxonada 19 mlrd. 629 mln. 990 ming so`mlik iste`mol mollari chiqargan bo`lsa 2014 yilda bu ko`rsatkich 23 mlrd. 831 mln. 397 ming so`mga yetgan.

Albatta bunday ijobiy natijalarga erishishda birinchi galda korxonada mehnat resurslaridan unumli foydalanganlik darajasini va asosiy vositalardan foydalanishning yuqoriligi shuningdek, bir qatorda ishchilarni bor texnika va texnologiyalardan samarali foydalanishida deb qarash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari «Popdonmahsulotlari» aksiyadorlik jamiyatida zamonaviy boshqaruv hamda mehnat motivasiyasini to`g`ri yo`lga qo`yilganli, ya`ni ishchi va xizmatchilarni o`z vaqtida rag`batlantirilib turilishi jumladan, korxonada kishi salomatligiga zarar keltiruvchi sharoitda ishlovchilarga qo`shimcha ish haqlari va korxonada bepul oziq - ovqat beriladi.

Shuningdek, aktsiyadorlik jamiyati faoliyati samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni kamaytirish maqsadida ko'plab yangiliklarni joriy etilgan. Barcha harajatlar – yonilg'i, elektr – energiya, gaz, suv resurslarini belgilangan me'yoriy xujjatlar asosida ishlab chiqarish sexlarida o'lchagich asbob – uskunalari o'rnatilgan bo'lib, korxonalar shu orqali tejamkorlik tamoyillariga bevosita amal qilinadi.

«Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining asosiy vositalarining xarakati (2.1.5-jadval)ni kuzatish mumkin-ki, korxonaning asosiy vositalar xolati 2012 yil 3 mlrd. 782 mln. 183 ming so'mlik jami asosiy vosita bo'lgan bo'lsa, 2013 yil 4 mlrd. 399 mln. 647 ming so'm 2014 yilda esa 5 mlrd. 885 mln. 652 ming so'm bo'lgan. 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 2 mlrd. 103 mln. 469 ming so'm ko'p ko'rsatkichga erishilgan.

Bunga sabab komissiya tomonidan asosiy vositalarning qayta baholanganligida vositalarning narxlari oshganligidir. Asosiy vositalarning eskirishi ya'ni amortizatsiya so'mmasi 2014 yilda 692 mln. 972 ming so'm bo'lib, bu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 225 mln. 771 ming so'mga oshgan.

### 2.1.5-jadval

#### «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining asosiy vositalar xarakati

(ming so'm)

№	Ko'rsatkichlar	2012yil	2013yil	2014yil	2014yilning 2012yilga nisbatano'zgarishi (-, +)
1	Boshlang'ich qiymati	3782183	4399647	5885652	2103469
2	Eskirish summasi	467201	607070	692972	225771
3	Qoldiq qiymati	3314982	3792577	5192680	1877698

**Manba:** «Popdonmahsulotlari» aktsiyadorlik jamiyatining ma'lumotlari

Bizga ma'lumki, har qanday korxonada ham asosiy vositalarning eskirishi uchun ham amortizatsiya ajratmalari ajratiladi. Bino va inshootlar, qurilishlar uchun bularning qiymatini 5 % ini, asbob uskuna, mashina jixozlar, yengil avtomobil,

mebel , inventarlar, kompyuter texnikalari va shunga o`xshash asosiy vositalar uchun 20 % ini, xarakatdagi tarkib; avtomobil transporti, yuk avtomobillari va shu kabilardan yillik 15 % xisobida amortizatsiya ajratmalari ajratilib, kelgusi faoliyat uchun jamg`arib boriladi. Bu esa ma`lumki, amortizatsiya ajratmalari belgilangan me`yorlar asosida mahsulotning tannarxiga ham kiritiladi.

Korxonada o`z faoliyati davomida ko`plab iqtisodiy masalalar bo`yicha modernizatsiyalash jarayoni ya`ni, yangi turdagi asbob – uskunalar, asosiy vositalar va hokozalar olib kelinishi bilan e`tiborga molikdir. Jamiyatda 2014 yilda ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot sifatini yaxshilash, turlarni ko`paytirish maqsadida zamon talablariga mos sifatli mahsulotlari ishlab chiqarishni ta`minlab berdi:

Tegirmon sexiga qo`shimcha 50 tonna bug`doy mahsulotini qayta ishlab chiqarish quvvatiga ega dastgohlarni o`rnatish;

- ✓ chorva hayvonlari uchun qishki va yozgi bino qurish;
- ✓ ma`muriy binolarni ta`mirlash;
- ✓ chorva hayvonlarini sotib olish.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida 2014 yil yakunlari bo`yicha o`tgan yilga nisbatan mahsulot hajmining jami 115 foizga bajarildi, iste`mol mollarining jami 109 foizga bajarishga erishildi, mahsulot sotishdan sof tushum 163 foizga bajarildi, sof foydasi esa 164 foizga bajarilganli bilan xarakterlanadi.

## **2.2. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy tahlili.**

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlovchilar soni 2014 yil 1 oktyabr holatiga 270 kishi bo`lib, shundan asosiy faoliyatda mahsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo`ladigan ishchi kuchi 260 kishini tashkil etadi.

Shuni alohida ta`kidlash joiz – ki, ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita ishtirok etishiga qarab ish haqi xarajatlari har xil usullar bilan taqsimlanadi. Jumladan, ishlab chiqarish sexi xodimlari va unga xizmat qiluvchi ishchilarga hisoblangan ish haqi xarajatlari har bir ishlab chiqarish sexi bo`yicha ishlab

chiqarilgan mahsulot turi va navlarining miqdoriga nisbatan mutanosib taqsimlanadi.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlovchilarning bo`limlar bo`yicha taqsimoti 2.2.1- jadvalda aniq ko`rsatilgan.

Umuman olganda, donni qabul qilishdan boshlab, to mahsulotni sotish bosqichigacha ishlab chiqarish jarayonini tashkil qiladi. Ishlab chiqarish jarayonida band bo`lgan ishchilar bir necha xil vazifalarni bajaradi. Masalan, donni qabul qilish va birlamchi ishlov berishda band bo`lgan ishchilar, donni saqlash jarayonida band bo`lgan ishchilar, un – yorma ishlab chiqarishdagi ishchilar, omuxta yem ishlab chiqarishdagi ishchilar, yordamchi ishlab chiqarish ishchilari hamda ishlab chiqarishga ta`alluqli boshqa ishchi va xodimlar.

### 2.2.1-jadval

#### “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlovchilarning bo`limlar bo`yicha taqsimoti

<b>№</b>	<b>Bo`limning nomi</b>	<b>Ishlovchilar soni</b>
1	Xizmatchilar	43
2	Tegirmon sexida	10
3	Elevator sexida	10
4	Yukchilar	22
5	Mexanika bo`limi	10
6	Nurchilar	8
7	Soqchilar	23
8	Non sexi	20
9	Omuxta yem sexi	9
10	Xalqabod don qabul qilish	8
11	Chust don qabul qilish filiali	27
12	Boshqalar	48

**Manba:** “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati ma`lumotlari

Bundan tashqari bir ishchini o`zi bir vaqtda bir necha mahsulot turi va navini ishlab chiqarishda ishtirok etishi mumkin.

Jamiyatning 2014 yilda ishchi xodimlarining ish haqi fondi 2514720 ming so`mni tashkil etib, o`rtacha bir ishlovchining bir oylik ish haqi 505420 so`mdan to`g`ri kelgan. 2014 yilda ishchi xodimlarni malakasini oshirish maqsadida shartnoma tuzilib, 15 nafar ishchi xodimni malaka oshirish kurslarida o`qitildi.

Ushbu tadbirga ajratilgan mablag`larning umumiy hajmi 30000 ming so`mni tashkil etgan.

“Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xaridorgirligini oshirish borasida ham bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mahsulot turlarini ko`paytirish, uning sifatini oshirish va zamon talablari asosida ishlab chiqarish shu kabi ishlar sarasiga kiritilgan.

Korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash uchun korxonani, kapitalini tarkibini yaxshilash va tahlil qilish katta ahamiyatga egadir. Bu esa korxonani kelgusu rejalarini ifodalovchi nisbatdir. Korxonani kapitali tarkibini ifodalovchi ko`rsatkichlar bo`lib quyidagilar hisoblanadi (2.2.2-jadval).

### 2.2.2-jadval

#### “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati kapitalining tarkibini ifodalovchi ko`rsatkichlar dinamikasi

(ming so`m)

T/№	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o`zgarishi(+,-)
1.	Xususiy kapital	1816091	18911732	2059269	243178
2	Jami balans	38072495	38315673	45013586	6941091
3	Uzoq muddatli qarzga olingan kapital	650876	802520	895519	244643
4	Uzoq muddatli aktivlar	4296613	5174608	6124796	1828156

**Manba:** “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati ma`lumotlari.

Jadval ma`lumotlariga ko`ra, “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining xususiy kapitali 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 243 mln. 178 ming so`mga

oshib, 2 mlrd. 59 mln. 269 ming so`mni tashkil etdi. 2014 yilda jami balans qiymati 4 5 mlrd. 13 mln. 586 ming so`mga teng bo`lib, o`tgan 2012 yilga nisbatan 6 mlrd. 941 mln. 91 ming so`mga ortganligini ko`rish mumkin. Xuddi shu kabi jadval ma`lumotlaridan jamiyatning boshqa uzoq muddatli qarzga olingan kapital va uzoq muddatli aktivlar hajmi ham o`sganligini ko`rish mumkin.

1. Mustaqqilik koeffitsenti. Bu ko`rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapital summasi (passiv balansni I bo`lim jami) balansni jami summasiga bo`linadi.
2. Moliyaviy barqarorlik koeffitsenti. Bu ko`rsatkichni aniqlash uchun: xususiy kapital plus uzoq muddatli qarzga olingan kapital summasini balansini jami sumasiga bo`linadi.
3. Mablag`lar bilan ta`minlanish koeffitsenti. Bu ko`rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapitalning qarzga olingan kapital summasiga bo`linadi.
4. Investitsiya koeffitsent. Bu ko`rsatkichni aniqlash uchun xususiy kapital summasini uzoq muddatli aktivlar (balansni I aktiv bo`limi jamiga) bo`linadi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma`lumotlaridan va koeffitsientlarni aniqlash usullaridan foydalangan holda “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy holatiga baho berish mumkin.

### 2.2.3-jadval “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida kapitali tarkibining tahlili.

(ming so`m)

№	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2014 yil	O`zgarish
1	Mustaqilik koeffitsienti.	$\frac{1816091}{38072495} = 0.048$	$\frac{2059269}{45013586} = 0.046$	-0,02
2	Moliyaviy barqarorlik koeffitsienti	$\frac{2466967}{38072495} = 0.65$	$\frac{2954788}{45013586} = 0.66$	0,01
3	Mablag` bilan ta`minlanish koeffitsienti.	$\frac{1816091}{650876} = 2.8$	$\frac{2059269}{895519} = 2.3$	-0,5
4	Investitsiya koeffitsienti	$\frac{1816091}{4296613} = 0.42$	$\frac{2059269}{6124796} = 0.34$	-0,08

**Manba:** “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati ma`lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2.2.3-jadval ma`lumotlaridan ko`rinadi-ki, jamiyatning moliyaviy barqarorlik koeffitsienti kapitalining 2014 yilda 2012 yilga nisbatan olganda 0,01 birlikka o`sgan bo`lsa, qolgan mustaqilik koeffitsienti 0,02, mablag` bilan ta`minlanish koeffitsienti 0,5 va investitsiya koeffitsienti 0,08 birlikka kamayganligini ko`rish mumkin. Ammo koeffitsientlarini bunday miqdorda o`zgarishi jamiyat faoliyatiga jiddiy ta`sir ko`rsatmaydi. Shunday bo`lsada jamiyat iqtisodiy barqarorligini ta`minlash uchun zarur chora tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Endi “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni xaridorgirligini oshirish borasida amalga oshirayotgan ishlardan birini tahlilini ko`rib chiqaylik (2.2.4-jadval).

**2.2.4-jadval**

**“Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxi tahlili**

(ming so`m)

T/№	Iqtisodiy ko`rsatkichlar	Yillar			2014 yil 2012 y.ga nisbatan, % da
		2012	2013	2014	
1	Ishlab chiqarilgan mahsulot xajmi, joriy narxda	22391940	24580222	31537231	140,8
2.	Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi	20624884	21505425	28635125	138,8
3.	Bir birlik mahsulot tannarxi, 1q:2q	1,1	1,14	1.1	-

**Manba:**“Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining 2012-2014 yillardagi hisobotlaridan olingan

Jadval ma`lumotlariga ko`ra, “Popdonmahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxi 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 38,8 foizga oshgan bo`lsada, birlik mahsulot tannarxi o`zgarishsiz qolgan. Ammo 2013 yilga nisbatan olganda 0,04 foizga kamaytirishga erishildi.

Ushbu ijobiy natijaga erishish Prezidentimiz tomonidan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun “Ishlab chiqarilgan mahsulotlar tannarxini pasaytirish bo`yicha dastur”da belgilangan quyidagi kompleks chora-tadbirlarni jumladan,

- korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

- qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarining raqobatdoshligini oshirish;
- elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralarini amalga oshirish kabi belgilangan ustuvor vazifalarni amaliyotga tadbiiq etish deb qarash maqsadga muvofiqdir.

Korxonadan olib borilgan ijobiy ishlar jumladan, mamlakatimizda oziq – ovqat mahsulotlari bilan aholini ta'minlash va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlarda keltirilgan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish natijasida bir qator ijobiy natijalarga erishildi (2.2.5 – jadval).

#### 2.2.5 – jadval

#### **“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati faoliyatining 2012-2014 yillardagi ayrim moliyaviy natijalar ko'rsatkichi tahlili**

(ming so'm hisobida)

№	Ko'rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yil 2012 y.ga nisbatan, (+, -)
1.	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot	19770185	21555956	25133860	5363675
2.	Tayyor mahsulot sotishdan tushum	22391940	24580222	31537231	9145291
3.	Mahsulot tannarxi	20624884	21505425	28635125	8010241

**Manba:** “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatidan olingan ma'lumotlar

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati 2012-2014 yillarda quyidagi moliyaviy natijalarga erishgan:

- ✓ korxonadan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot hajmi, 2012 yilda 19 mlrd. 770 mln. 185 ming so'mni tashkil etgan, 2013 yilda 2012 yilga nisbatan–

9,0 foiz va 2014 yilda 2013 yilga nisbatan esa – 16,6 foizga ortirishga erishib, 25 mlrd. 133 mln. 860 ming so`mga yetkazilgan;

✓ tayyor mahsulot sotishdan tushum 2012 yilda esa 22 mlrd. 391 mln. 940 ming so`mni tashkil etib, 2014 yilda 31 mlrd. 537 mln. 231 ming so`mga yetkazilganligini ko`rsatib, o`tgan yilning mos davriga nisbatan 44,0 foizga ko`paygan;

✓ sotilgan mahsulot tannarxi esa 2012 yilda oldingi yilga nisbatan 5,4 foizga, 2013 yilda 4,3 foiz va nihoyat 2014 yilda esa 33,2 foizga o`zgargan.

Ushbu mavzu doirasida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatiningo`rnini bilish maqsadida uning iqtisodiy salohiyatini baholashni lozim deb topdim. Chunki, “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatining iqtisodiy salohiyati qanchalik yuqori bo`lsa, jamiyatning salohiyati ham yuqori bo`lishi bois bu borada asosiy korxonalar hisobotlaridan olingan statistik ma`lumotlardan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun bir qator iqtisodiy nisbiy ko`rsatkichlarni hisoblash natijalarini aniqlash va tahlil etish talab etiladi (2.2.6-jadval).

## 2.2.6-jadval

### “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy vositalar rentabelligi tahlili

(ming so`m)

№	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o`zgarishi, %
1.	Asosiy vositalarning yillik o`rtacha qiymati	4122564	4399647	5885652	142,8
2.	Sof foyda	61333	84621	107250	175,0
3.	Asosiy vositalar rentabelligi %	1,5	1,9	1,8	0,3

Manba: “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati ma`lumotlaridan olingan

Jadvalda keltirilgan ma`lumotlarga ko`ra, jamiyat asosiy vositalari qiymati joriy yilda 2012 yilga nisbatan 42,8 foizga oshib, 5 mlrd. 885 mln. 652 ming so`mga yetgan. Sof foydasi 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 75,0 foizga oshib, 107

mln. 250 ming so`mga yetgan. Jamiyatda asosiy vositalar rentabelligi 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 0,3 foizga o`sgan bo`lib, bu o`z navbatida sof foydaning o`shishiga nisbatan asosiy vositalarning yillik o`rtacha qiymati ko`proq o`sganligi bu esa yangi texnika va texnologiyalar bilan korxonani jihozlashda davom etayotganligidan dalolat beradi. “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida xarajatlar rentabelligini tahlil qilsak (2.2.7-jadval), bu masala ancha oydinlashadi.

## 2.2.7-jadval

### “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida xarajatlar rentabelligi tahlili

№	Ko`rsatkichlar	2012 yil	2013 yil	2014 yil	2014 yilning 2012 yilga nisbatan o`zgarishi, %
1.	Jami xarajatlarning yillik o`rtacha qiymati	3225648	3459871	3803354	118,0
2.	Sof foyda	61333	84621	107250	175,0
3.	Xarajatlar rentabelligi (%)	0,2	2,5	2,8	2,6

**Manba:** “Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyati ma`lumotlaridan olingan

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida yillik xarajatlar miqdori 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 18,0 foizga oshgan bo`lib, 3 mlrd. 803 mln. 354 ming so`mga yetgan. Bunda xarajatlar jumladan, davr xarajatlari – 743 mln 174 ming so`m, ma`muriy xarajatlar – 312 mln. 36 ming so`m va boshqa xarajatlar miqdori – 431 mln. 137 ming so`mga kamaytirilib, xarajatlar rentabelligi 2014 yilda 2012 yilga nisbatan 2,6 foizga oshgan.

Xulosa qilib aytganda korxonani moliyaviy xolatini ifodalovchi ko`rsatkichlardan biri bo`lib, ularning moliyaviy barqarorlik darajalari xisoblanadi. Korxonalarni to`lov qobiliyati-bu ularni o`z aktivlari xisobiga qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlarini o`z muddatida bajarishga tushuniladi. Agar korxonaning umumiy aktivlari ularni tashqi qarzarlaridan ko`p bo`lsa bunday korxonalarni to`lov qobiliyatiga ega korxonalar deyiladi.

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi hisobot shaklinng asosiy ko`rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi;

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi (sof) tushum.
2. Mahsulot sotishdan yalpi foyda.
3. Asosiy faoliyatdan foyda (zarar).
4. Moliyavny faoliyatdan foyda (zarar).
5. Umumxo`jalik faoliyatidan foyda (zarar).
6. Favqulodda foyda (zarar).
7. Soliq to`loviga qadar foyda (zarar).
8. Sof foyda (zarar).

Ushbu ko`rsatkichlarni hisob-kitob qilish yuzasidan albatta korxonaning quyidagi xarajat qatorlarini xam tarkiblash va farqlash lozim.

1. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.
2. Davr xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar.
4. Favqulodda xarajatlar.

Daromad va xarajatlarni bu tarkib turkumlanishi quyidagilarga imkon beradi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish;
- moliyaviy boshqaruv yuzasidan operatsion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash;
- korxonada tomonidan olinadigan daromadlarni ularning yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo`yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda kutilmagan holatlardan).

Moliyaviy natijalar to`g`risidagi yangi hisobot davri ularning har bir shakllanish qatori bo`iicha to`liq axborotlarni olish imkonini beradi. Bu axborotlar ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarining manfaatlar to`qnashuvini keltirib chiqarmaydi. Agar shunday bo`lganda edi, moliyaviy hisobotni tuzish qoidasi buzilgan bo`lar edi. Negaki, moliyaviy hisobotdagi ma`lumotlarda hech qachon bir

turkum axborot foydalanuvchilar foydasiga, boshqa turkum zarari hisobiga aks ettirishlar bo`lmasligi talab etiladi. Har bir korxonada mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hajmini ko`paytirish imkoniyatiga egadir, lekin hajmning keskin oshishi tushumni (foyda) kamayishiga ta`sir etadi. Foyda olishning eng quyi va yuqori chegara hamda imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Ya`ni, korxonada ushbu chegaraviylikdan quyi holatlarda zararga, yuqori holatlarda foydaga ishlashini xarakterlaydi.

Mazkur moliyaviy natijalar korxonada sarf xarajatlari bilan birgalikda uning daromadlarini ham rejalashtirish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Korxonalarining kelgusidagi rejalari o`z navbatida korxonaning strategiyasini ham belgilab beradi. Innavatsion loyihalarni amalgam oshirish, investisiya samaradorligini oshirish, shuningdek, kadrlar malakasini oshirish kabi masalalar ham o`z yechimini topadi deb aytish mumkin bo`ladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini belgilash iqtisodiy xarakatni boshqarishda va biznesni yo`lga qo`yishda muhim masala hisoblanadi. Tahlil etishda mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasining belgilanishiga, uning o`zgarish oraliqlariga va sabablariga ahamiyat beriladi. Kritik hajm darajasining o`zgarishiga ta`sir etuvchi omillarga: mahsulotlar birlik baholarining o`zgarishi, bir birlikka o`zgaruvchan xarajatlarning o`zgarishi, doimiy xarajatlarning o`zgarishi kiritiladi. Bu omillar bevosita hisob-kitob qilinadigan omillar hisoblanadi. Kritik hajm darajasini aniqlashning odatda bir necha usullari mavjud. Kritik hajm darajasini grafik shaklida ifodalash uning mazmunini to`liq anglashga imkon beradi. Buni bevosita quyidagi ifodadan ham ko`rish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida foyda ko`rmasdan ishlaydigan korxonalar bo`lmasligi kerak. Xarajatlarni daromadlari qoplamaydiganlar qarz (kredit) hisobiga yashashadi. Bu esa moliyaviy ahvolni og`irlashtiradi va pirovard natijada korxonada sinadi. Shuning uchun foyda ko`rish korxonalarining yashashi, raqobatlariga bardoshligi kengaytirilgan ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy manbai hisoblanadi.

### **III-bob. Mamlakatni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanishning takomillashtirish istiqbollari.**

#### **3.1. Sanoat korxonalarini qo'llab - quvvatlashning asosiy yo'nalishlari.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2015 yil 16-yanvarda bo'lib o'tgan Vazirlar Mahkamasi majlisida belgilab bergan va tarkibiy o'zgarishlar jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish, tarmoqlar raqobatbardoshligini oshirish, mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va aholi bandligini oshirishga qaratilgan 2015 – yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish maqsadida joriy yilning birinchi choragida makroiqtisodiy barqarorlik hamda iqtisodiyotning barqaror yuqori o'sish sur'atlarini saqlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar qabul qilindi va ularning ijrosi ta'minlandi.

Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan sanoat ishlab chiqarishini tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, muhandislik-kommunikatsiya va yo'l – transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish, shuningdek, tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish bo'yicha o'rta muddatli dasturlar ishlab chiqilib, tasdiqlandi. Ushbu dasturlarning amalga oshirilishi iqtisodiyotimizni yanada yuksaltirish, ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, muhim sanoat tarmoqlarini rivojlantirishni yangi, yuqori bosqichga ko'tarish, zamonaviy va rivojlangan infratuzilmani shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur dasturlar doirasida 2015 – 2019 yillarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha umumiy qiymati 40,8 milliard dollarlik 846 loyiha, muhandislik – kommunikatsiya va yo'l - transport infratuzilmasi obyektlarini qurish hamda rivojlantirishga doir umumiy qiymati 9,8 milliard dollarlik 141 loyiha, shuningdek, ishlab chiqarishni

mahalliyashtirish bo'yicha umumiy qiymati 5 milliard dollardan ziyod 602 loyihani amalga oshirish va 1,2 mingdan ortiq yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish ko'zda tutilgan.

Yetakchi sanoat tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish, modernizatsiya va faol diversifikatsiya qilishni kengaytirish hamda chuqurlashtirish hisobidan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiyot raqobatbardoshligini yanada oshirish bo'yicha 2015 – yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalari va yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida shu yilning birinchi choragida iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishni yanada chuqurlashtirish, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yuqori o'sish sur'atlarini saqlash va keyingi choraklarda yanada iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratish ta'minlandi.

2014-yilning birinchi choragiga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmi 7,5, sanoat mahsulotlari – 7,9, qishloq xo'jaligi mahsulotlari – 6,3, xizmatlar hajmi 13,1 foiz o'sdi (3.1.1-jadval). Makroiqtisodiy barqarorlik davlat byudjetining yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,1 foiz profitsiti, tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini, shuningdek, soliq yukini 20,1 foizdan 19 foizga bosqichma-bosqich kamaytirish hisobidan yanada mustahkamlandi.

2011 – 2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh etish va barqarorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari dasturi doirasida amalga oshirilgan chora – tadbirlar banklar jami kapitalining 24,5 foiz va aktivlarining 28,1 foiz ko'payishiga xizmat qildi. Bank tizimi kapitalining yetarlilik darajasi eng kam xalqaro standartlardan qariyb 3 barobardan ziyod darajada saqlandi. Bank tizimi likvidligi esa minimal talablardan 2 barobar ortadi. Joriy yil boshidan buyon Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 10 foizdan 9 foizga tushirilgani iqtisodiyotni kredit bilan ta'minlash hajmini 1,3 barobar oshirishda rag'batlantiruvchi omil bo'ldi. Iqtisodiyotning barqaror o'sish sur'atlari iste'mol talabini rag'batlantirishga doir amalga oshirilgan chora-tadbirlar bilan birga aholi ichki yalpi daromadini 17,4 foizga oshirishga yordam berdi. Bu esa chakana savdo

aylanmasi hajmi 15,2 foiz va aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish 10,1 foizga oshishida muhim omil bo'ldi.

### 3.1.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasini 2015 yilning birinchi choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari

(2014-yilning shu davriga nisbatan foiz hisobida)

T/№	Ko'rsatkichlar	O'sish sur'atlari
1.	Yalpi ichki mahsulot	107,5
2.	Sanoat mahsulotlari	107,9
3.	Iste'mol tovarlari	111,2
4.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	106,3
5.	O'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi	108,7
6.	Qurilish ishlari	118,9
7.	Chakana savdo aylanmasi	115,2
8.	Pullik xizmatlar	110,1
9.	Jami xizmatlar	113,1

**Manba:** O'zbekiston Respublikasini 2015-yilning I choragida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risidagi hisoboti T-2015yil

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, yuqori texnologiyali muhim quvvatlarni ishga tushirishni jadallashtirish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini izchil rivojlantirish asosida tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirishga qaratilgan investitsiya siyosatining faol amalga oshirilishi natijasida joriy yilning birinchi choragida iqtisodiyotda o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,7 milliard dollarni tashkil qildi va 2014-yilning shu davriga nisbatan 8,7 foizga o'sdi.

Investitsiya faolligining yuqori sur'atlari qurilish-montaj ishlarini tashkil etishni takomillashtirish, pudratchi tashkilotlarning moddiy-texnik bazasini

rivojlantirish va mustahkamlashga doir chora-tadbirlar bilan bir qatorda qurilish ishlari hajmini 18,9 foiz oshirish imkonini berdi.

O'zlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmining 660 million dollardan ziyodi yoki 24,3 foizini xorijiy investitsiyalar va kreditlar (o'sish 12,1 foiz), jumladan, 580 million dollarini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (o'sish 10 foiz) tashkil qildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi tomonidan iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun o'zlashtirilgan mablag'lar hajmi 5,6 foiz o'sdi va 81,1 million dollarni tashkil qildi.

Joriy yil boshidan buyon o'zlashtirilgan investitsiyalar tarkibida xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari qariyb katta ulushni (umumiy hajmning 36,3 foizi) tashkil etdi va 2014 – yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 28,3 foiz ko'paydi. Bu ishlab chiqarishlarni diversifikatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tarmoq dasturlari, shuningdek, hududlarni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlar hayotga faol tatbiq etilayotgani samarasidir.

Umuman, joriy yil boshidan buyon 2015 – yilgi Investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 4,8 milliard dollardan ziyod 53 yangi investitsiya loyihasini amalga oshirish boshlandi, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha hududiy dasturlarni amalga oshirish doirasida 434 yangi ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi. Jumladan, qurilish materiallari sanoatida 179, oziq-ovqat sanoatida 141, to'qimachilik sanoati va tikuvchilik sohasida 99, mebel va qog'oz sanoatida 56, kimyo va neft-kimyo sanoatida 37 va boshqa tarmoqlarda loyihalar amalga oshirildi.

Modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish, yangi ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish sanoatning yetakchi tarmoqlarini tarkibiy o'zgartirish hamda diversifikatsiya qilish jarayonlarini yanada chuqurlashtirish imkonini berdi. Xususan, shu yilning birinchi choragida sanoatning yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tarmoqlarini jadal rivojlantirish

ta'minlandi. Jumladan, yengil sanoat (paxta tozalash sohasidan tashqari) 2014 – yilning shu davriga nisbatan 120 foiz (jumladan, ip gazlama ishlab chiqarish 120,1, trikotaj mahsulotlari 114,5, tikuvchilik mahsulotlari 120,6, charm mahsulotlari 118,4 foiz), qora metallurgiya 111,9, yog'ochni qayta ishlash 108,9, oziq-ovqat 114,8, kimyo va neft-kimyo tarmog'i 109,3 foizga o'sishi ta'minlandi.

Traktorlar, neft va gaz o'tkazish quvurlari, karbamid, xlorli kaliy, muzlatgich va sovutgichlar, ip-gazlama, trikotaj matosi, trikotaj, tikuvchilik va paypoq mahsulotlari, charm va attorlik buyumlari, un, sut, dori-darmonlar va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish sezilarli ravishda ko'paydi.

2015 – yilda tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish doirasida joriy yilning birinchi choragida 504 loyiha bo'yicha qiymati 620 milliard so'mdan ortiq mahsulot ishlab chiqarildi, import o'rnini bosish bo'yicha hisoblab chiqilgan samara 260 million dollardan oshdi. Mazkur loyihalarni amalga oshirishda 430 dan ortiq yangi turdagi mahsulotlar, jumladan, ekskavator ehtiyot qismlari, «Damas» avtomobilining shtamplangan kuzov detallari, kompressor agregatlari ehtiyot qism va uzellari, motor moylari, gidravlika suyuqliklari, shaxta vagonchalari, yangi turdagi maishiy muzlatgich va sovutgichlar, elektr pechlar, maishiy yoritgichlar, energiya tejaydigan yorug'lik diodli chiroqlar, maishiy texnika uchun butlovchi buyumlar, velosipedlar, sport trenajyorlari va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari turlarini kengaytirishga doir amalga oshirilayotgan chora – tadbirlar doirasida yil boshidan buyon 19 turdagi yangi tayyor tikuvchilik buyumlari va ularning 151 yangi modellari, 98 turdagi yangi qandolat, meva – sabzavot va go'sht - sut, konserva mahsulotlari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Natijada iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 11,2, jumladan, oziq - ovqat mahsulotlari 19,2 va nooziq - ovqat mahsulotlari 6 foiz ko'paydi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida joriy yilning o'tgan davrida yirik

korxonalarda 8,1 million dollarlik ma'naviy va jismoniy eskirgan 130 uskuna almashtirildi, ommaviy ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan innovatsiya mahsulotlari hajmi 1,7 barobar ko'paydi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida sanoatda mehnat unumdorligi 6,1 foiz o'sdi, yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tannarxi o'rtacha 9, yalpi ichki mahsulotning energiya iste'moli hajmi 10,1 foiz kamaydi.

Jahon bozorida kon'yunkturani oldindan taxmin qilib bo'lmasligi va uning beqarorligi kuchayib borayotganiga qaramasdan, tashqi bozorda xaridorgir mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va eksportchi korxonalarni o'z mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarishda har tomonlama qo'llab - quvvatlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi eksport hajmini 13,9 foiz oshirish imkonini berdi.

Joriy yil boshidan buyon 146 yangi korxonalar eksport faoliyatiga jalb etildi, gaz, elektr va kombinatsiyalangan maishiy plitalar, yangi turdagi kabel - o'tkazgich mahsulotlar, avtomobil o'rindiqlari, avtomobillarning shtamplangan va payvandlangan detallari, suyuq va gazsimon argon, lok - bo'yoq mahsulotlari, gigiyena buyumlari, konservalangan meva - sabzavot mahsulotlari kabi qiymati 40 million dollardan ortiq yangi turdagi 102 tovarni eksport qilish o'zlashtirildi.

### **3.2. Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish yo'nalishlari.**

Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tilgan davrdan boshlab Prezidentimiz tomonidan har bir yil yakuniga ko'ra erishilgan yutuq va natijalarni sarhisob qilib, kelgusi yilda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni belgilab olish an'anaviy tarzda amalga oshirilib kelmoqda. Bu tadbirning o'ziga xos ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- birinchidan, mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari hamda dasturlarining izchil va puxta asoslanganligini baholash;

- ikkinchidan, xalqimizning yil davomidagi fidokorona mehnati natijalarini e`tirof etish;

- uchinchidan, kelgusi yilda ustuvor e`tibor qaratish lozim bo`lgan vazifa va yo`nalishlarni belgilash, yetarli darajada foydalanilmayotgan imkoniyatlarni aniqlash;

- to`rtinchidan, iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari, mamlakatimizning barcha hududlaridagi iqtisodiy salohiyatni o`zaro muvofiqlashtirilgan holda yanada to`laroq safarbar etish va boshqalar.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning turli xil ko`rsatkichlari mavjud bo`lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga bo`lish mumkin:

birinchi guruh - umumlashtiruvchi va qiymat ko`rsatkichlari bo`lib, ular asosiy fondlarning turli guruhlarini dinamika va statikada baholash, tahlil qilish, zahiralarni aniqlash va bashorat qilish imkonini yaratadi. Bunday ko`rsatkichlarga fond qaytimi, fond sig`imi, fond rentabelligi va boshqalarni kiritish mumkin.

ikkinchi guruh - xususiy va natural ko`rsatkichlar bo`lib, ko`proq asosiy ishlab chiqarish fondlarining faol qismi - ishchilar, mashina va asbob-uskunalaridan foydalanish bilan bog`liq.

Ko`rsatkichlarning bu guruhi tarkibiga quyidagilar kiradi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlari (mashina va asbob-uskunalar) dan ekstensiv foydalanish koeffitsienti, ulardan vaqt bo`yicha foydalanganlik darajasini aks ettiradi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlari(mashina va asbob-uskunalar)dan intensiv foydalanish koeffitsienti, ulardan quvvat bo`yicha foydalanganlik (unumdorlik) darajasini aks ettiradi;
- asosiy ishlab chiqarish fondlaridan integral foydalanish koeffitsienti, barcha ekstensiv va intensiv omillardan birgalikda foydalanishni hisobga oladi.

Ko`rsatilgan ko`rsatkichlarning har biri amaliyotda mustaqil ma`noga ega bo`lib, turli maqsadlarga erishish uchun foydalaniladi. Masalan, asosiy ishlab chiqarish fondlaridan vaqt bo`yicha qanday foydalanilganligini (ekstensiv

foydalanish) baholash asbob-uskunalarning smenalik koeffitsienti, uskunalarni koeffitsienti, smena davomida uskunalarning bekor turib qolishi, uskunalardan smenalarda foydalanish koeffitsienti kabi ko`rsatkichlar qo`llaniladi.

Sanoat korxonalarida asosiy vositalardan samarali foydalanish yo`nalishlari belgilab olishda quyidagi aniq maqsadli dasturlarni bajarilishi bilan o`z samarasini beradi deb hisoblaymiz:

1) korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish;

2) joriy kon`yunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo`lishini qo`llab - quvvatlash bo`yicha aniq chora - tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag`batlantirish uchun qo`shimcha omillar yaratish;

3) qat`iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag`batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish;

4) elektro-energetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste`molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish;

5) jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag`batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo`llab-quvvatlash<sup>7</sup>.

Dastur o`ziga qamrab olgan, o`z vaqtida qabul qilingan hujjatlarda avvalo mamlakatimiz moliyaviy - iqtisodiy, byudjet, bank - kredit tizimining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta`minlash, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalariga yordam ko`rsatish, aholini ijtimoiy qo`llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning puxta ishlab chiqilgani o`zining amaliy samarasini berdi.

---

<sup>7</sup> I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: O`zbekiston, 2009. 31-34-b.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishni to`liq baholash uchun ekstensiv ko`rsatkichlardan tashqari, ularning quvvat bo`yicha yuklanish tabiatini o`rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yerda yuqorida aytib o`tilganidek, texnologik uskunalar amaldagi unumdorligining, ya`ni texnik asoslangan progressiv unumdorlikning normativ unumdorlikka nisbati asosida ham qo`llash ijobiy natija beradi.

Uskunadan integral foydalanish koeffitsienti uskunadan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsientlarining ko`paytmasi orqali aniqlanib, uning vaqt va quvvat bo`yicha band bo`lishini (foydalanilishini) kompleks xarakterlaydi.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishning umumiy va qiymat ko`rsatkichlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, avvalo fond qaytimi haqida to`xtalib o`tish kerak. U asosiy vositalar birligiga (qiymati bo`yicha) to`g`ri kelgan mahsulot ishlab chiqarishni xarakterlaydi.

Fond sig`imi kapital qo`yilmalari (investitsiyalar)ni tejash yoki ko`paytirish bilan uzviy ravishda bog`liq bo`ladi. Masalan, mahsulot fond sig`imi pasayib, uning ishlab chiqarish hajmi doimiy yoki o`suvchi bo`lganda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish sharoitlari yaxshilanadi, demak, kapital qo`yilmalarini tejash uchun imkoniyat tug`iladi.

Har bir korxonada o`z tasarrufidagi asosiy ishlab chiqarish vositalaridan iloji boricha unumli foydalanishga intilishi lozim. Bunga fondlarni ish bilan ta`minlashni yaxshilash tufayli ishlab chiqarish va mahsulotlarni sotish hajmini oshirish, nisbiy xarajatlarni kamaytirish, foydani oshirishdan tashqari asosiy fondlarda jamiyatning o`tmishda narsa holiga aylangan mehnati mujassamlanganligi ham zaruriyat tug`diradi.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishni yaxshilashning asosiy yo`nalishlari sifatida quyidagilarni ko`rsatish mumkin:

- smena davomida uskunalar bekor turib qolishini qisqartirish va uning oldini olish;
- uskunalarning smenalik koeffitsientini oshirish;
- bekor turuvchi uskunalarni qisqartirish va tugatish;
- ta'mirlash va profilaktika tadbirlarini o'z vaqtida va sifatli ravishda amalga oshirish;
- uskunalarni ekspluatatsiya qiluvchi xodimlarning malakasini oshirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etishni va resurslar bilan ta'minlashni yaxshilash.

Mamlakatimizni iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli strategik maqsadni amalga oshirishning mantig'i mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlangan va O'zbekistonning jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo'naltirilgan tarkibiy o'zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini 2015 yildagi asosiy ustuvor yo'nalish sifatida davom ettirishni taqozo etmoqda. Bu o'rinda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mamlakatimizdagi xomashyo va resurslarga boy mavjud manbalardan oqilona foydalanish asosida yuqoriqo'shimchaqiymatga ega bo'lgan yuksak texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarishni ta'minlaydigan istiqbolli iqtisodiyot tarmoqlari haqida so'z bormoqda. Ana shu maqsadlarga erishish uchun "2011-2015 yillarda O'zbekiston ini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi dastur tasdiqlandi. Ushbu dastur sohasida umumiyqiymatiqariyb 50 milliard dollarni tashqil etadigan 500 dan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi. Bu xususda gapirganda, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan izchil chora-tadbirlar samarasida joriy yilning birinchi

choragida 8 mingdan ortiq yangi kichik biznes subyekti tashkil etilganligi alohida e`tiborga molikdir.

Bu 2014 - yilning shu davriga nisbatan 10,2 foizga ko`pdir. Eng ko`p kichik biznes subyekti sanoatda va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarida (umumiy tashkil etilganlarning 37,7 foizi), qurilish (11,5 foiz), shuningdek, savdo va umumiy ovqatlanish sohasida (29,3 foiz) tashkil qilindi.

2015-2016-yillarda davlat mulkini xususiylashtirish dasturini amalga oshirish doirasida umumiy qiymati 28,3 milliard so`mlik 55 davlat aktivi, jumladan, investorlarning 9,7 milliard so`mlik investitsiya kiritish majburiyatini olish sharti bilan 13 obyekt "nol" qiymatda sotildi. Bundan tashqari, zarar ko`rib ishlayotgan, iqtisodiy nochor va kam rentabelli tashkilotlarning foydalanilmayotgan hududlari va ortiqcha ishlab chiqarish maydonlarini optimallashtirish chora-tadbirlari natijasida 80 foydalanilmayotgan ortiqcha ishlab chiqarish maydonlari va obyektlari xususiy tadbirkorlik subyektlariga sotildi.

Tadbirkorlik faoliyatini qo`llab-quvvatlash va kichik ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish maqsadida joriy yilning birinchi choragida kichik biznes subyektlariga 2,8 trillion so`m, jumladan, 590 milliard so`mdan ziyod miqdorda mikrokreditlar ajratildi va o`sinh 2014-yilning shu davriga nisbatan 1,3 barobarni tashkil qildi. Shuningdek, xalqaro moliya institutlarining kichik biznesni rivojlantirish uchun 38,3 million dollarlik kredit liniyasi o`zlashtirildi. Ayni paytda O`zbekiston Banklar uyushmasi huzuridagi investitsiya loyihalari bo`yicha loyiha hujjatlarini tayyorlashni moliyalashtirish jamg`armasi ko`magida qiymati 10 milliard so`mdan ortiq 14 loyiha moliyalashtirildi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar-xomashyo bozorlaridan foydalanishini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar davlat xaridlari bo`yicha o`z mahsulot va xizmatlarini yetkazib beradigan akkreditatsiyadan o`tgan kichik biznes subyektlarining 2014 – yilning shu davriga nisbatan 4 barobardan oshishini ta`minladi. Ularning umumiy soni 34,2 mingtani yoki davlat xaridlari ishtirokchilarining 98,3 foizini tashkil etdi.

Natijada joriy yil boshidan buyon kichik biznes subyektlaridan davlat xaridlari hajmi 77,9 milliard soʻmni yoki elektron savdolar orqali amalga oshiriladigan davlat xaridlari umumiy hajmining 99,6 foizini tashkil qildi. Ayni paytda davlat xaridlari boʻyicha elektron savdolarning joriy etilishi hisobidan 22 milliard soʻmlik yoki shu maqsadga moʻljallangan 21,9 foiz byudjet mablagʻlari iqtisod qilindi.

Xususiy tadbirkorlarning tovar-xomashyo resurslaridan foydalanish mexanizmlarini soddalashtirish hisobidan joriy yilning birinchi choragida kichik biznes subyektlari tomonidan birja savdolari orqali sotilgan mahsulotlar hajmi 1,5 barobar va ular tomonidan xarid qilingan mahsulotlar hajmi 1,3 barobar oʻsdi.

Kichik biznes subyektlariga oʻz mahsulotlarini tashqi bozorga chiqarishga koʻmaklashish maqsadida joriy yil boshidan buyon Mahsulotlarni eksport qilishga koʻmaklashish byurosi tomonidan 318 korxonaga maslahat xizmatlari koʻrsatilib, mahsulotlarni standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish, akkreditatsiyadan oʻtkazish va eksport qilish, xalqaro hamda mamlakatlarga oid talablarni joriy etish borasida 29 xalqaro kelishuv imzolandi. Bundan tashqari, Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining eksportini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi tomonidan 315 tadbirkorlik subyektiga 220,4 million dollarlik mahsulotlarini eksportga chiqarish, 36 korxonaga xorijiy xaridorlar topishga va umumiy qiymati 2,5 million dollarlik eksport shartnomalari tuzishga yordam koʻrsatildi.

Natijada joriy yilning birinchi choragida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan qiymati 560 million dollardan ortiq, jumladan, “Oʻztadbirkoreksport” ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasi orqali 217,3 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Hisobot davrida davlat organlari bilan elektron hamkorlik mexanizmlarini keng joriy etish boʻyicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar doirasida soliq va statistika hisobotlarini elektron shaklda topshirish toʻliq qamrab olindi. 94 mingdan ziyod (yoki umumiy miqdorning 99 foizi) bojxona yuk deklaratsiyalari hujjatlarni elektron shaklda taqdim etish mexanizmini qoʻllash orqali rasmiylashtirildi.

Xo'jalik sudlari tomonidan ko'rib chiqilgan elektron shakldagi da'vo arizalari va iltimosnomalar qariyb 2 barobar (2014-yilning birinchi choragidagi 9,4 mingdan 16,9 mingtaga oshgan) ko'payib, 1 mingdan ortiq sud majlislari videokonferensiya rejimida o'tkazildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga doir chora-tadbirlarning amalga oshirilishi samarasida joriy yil birinchi choragida yalpi ichki mahsulotda kichik biznesning ulushi 41,7 foiz (2014-yilning birinchi choragida 41 foiz), sanoatda 29,8 foiz (26,8 foiz), pullik xizmatlar ko'rsatishda 48,4 foiz (42,7 foiz) va bandlikda 76,8 foiz (76,4 foiz) oshdi.

Ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirish va kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ishbilarmonlik muhitini baholash bo'yicha xo'jalik subyektlari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalarida o'z aksini topdi. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, tadbirkorlar birinchi chorakdagi ishbilarmonlik muhitining joriy ahvolini va amalga oshirilishi mo'ljallangan o'zgarishlarni ijobiy baholagan.

Internet orqali soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish, soliqlarni to'lash muddatining qisqartirilgani va soliq yukining kamaytirilgani, korxonalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, ruxsat berish tusidagi hujjatlar va litsenziyalar olish, mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish mexanizmlarining yanada soddalashtirilgani, shuningdek, tadbirkorlik subyektlarining xomashyo va tovar resurslaridan foydalanishi kengaytirilgani bilan bog'liq o'zgarishlar aksariyat hollarda ijobiy baholanmoqda.

Ayniqsa, real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlashda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalari alohida o'rin tutdi. Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamda amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab


chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – ayrim mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

Shunga ko`ra, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo`llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta`minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to`g`risida»gi (2008 yil 28 noyabr) 4058-sonli Farmonida muhim chora-tadbirlar qatorida mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarining barcha resurslardan samarali foydalanishi hisobiga mahsulot tannarxini 20 foizdan kam bo`lmagan miqdorda pasaytirish orqali ularning raqobatdoshligini ta`minlash vazifasi ham belgilab berilgan edi. (3.2.1-rasm)

Ushbu vazifani amalga oshirish doirasida mamlakatimiz korxonalarida tannarxni pasaytirishning asosiy yo`nalishlari sifatida quyidagilarga alohida e`tibor qaratildi.

### 3.2.1-rasm

#### Tannarxni pasaytirishning asosiy yo`nalishlari



**Manba:** I.Karimov. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari. – T.: O`zbekiston, 2009. asari

Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlashdagi muhim tadbirlardan yana biri – turli sabablarga ko'ra vujudga kelgan hamda korxonaning sog'lom moliya-xo'jalik faoliyati yuritishiga jiddiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan qarzlarni qayta ko'rib chiqish (restrukturizatsiya qilish) hisoblanadi. Mazkur tadbir orqali korxonalarining mavjud qarzlarning vujudga kelish sabablari va ularni to'lash imkoniyatlari o'rganiladi. Har bir korxonaning ahamiyati, yaxlit xo'jalik tizimida tutgan o'rnini, boshqa korxonalar bilan ishlab chiqarish va xo'jalik aloqalarini hisobga olgan holda mazkur qarzlarni to'lash muddatlarini kechiktirish, ular bo'yicha qo'llanishi mumkin bo'lgan turli sanksiyalarni bekor qilish, zarur hollarda, ushbu qarzlarni umuman ro'yxatdan chiqarish kabi choralar belgilanishi mumkin. Xususan, so'ngi yillarda davlat tomonidan real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida 70 dan ortiq korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko'rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 450 milliard so'mdan ortiq mablag'ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.

Bugungi kunda real sektor korxonalarini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda ularni sog'lomlashtirish tadbirlari ham muhim o'rin tutadi. Zero, uzoq davr mobaynida sifatsiz mahsulotni ishlab chiqarish, eskirgan texnika va texnologiya asosida zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarni saqlab qolish iqtisodiyotning sog'lomligiga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Bunday korxonalarni bankrot deb e'lon qilish hamda moliyaviy - xo'jalik faoliyatini tarkibiy o'zgartirish orqali qayta tuzish bu boradagi eng to'g'ri va samarali yechim hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirish, zamonaviy asbob-uskunalar xarid qilish xarajatlari umumiy kapital qo'yilmalar hajmining kamida 46 foizini tashqil etayotganini qayd etish darkor.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy ishlab chiqarish fondlarning hajmi va ulardan foydalanish darajasi korxonada ishlab chiqarish quvvatini belgilaydi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati – bu vaqt birligida rejada o`rnatilgan nomnoma va turlarda, natural ifodada ishlab chiqarish jihozlari va maydonlardan to`la foydalanib, ilg`or texnologiyani qo`llashni, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishni yaxshilashni, mahsulot sifatini yaxshilashni ko`zda tutgan holda mahsulot chiqarishning maksimal imkoniyatidir.

Ishlab chiqarish quvvati, mehnat vositalariga solingan potentsial imkoniyatidan to`la foydalanish mumkin sharoitida, asosiy fondlarning ishlashini ifodalaydi. Qoidaga muvofiq, ishlab chiqarish quvvati berilgan mahsulotni rejalashtirgan birliklarda natural ifodada o`lchanadi.

Assortimenti ko`p mahsulotlar bo`lganda ishlab chiqarish quvvati shartli-natural birliklarda ifodalanishi mumkin. Agar korxonada bir necha xil mahsulotlar chiqarsa, ishlab chiqarish quvvati har biri bo`yicha alohida o`rnatiladi.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarish quvvati yetakchi ishlab chiqarish sexlari, uchastkalari yoki agregatlari quvvatlari bo`yicha aniqlanadi, ya`ni yetakchi ishlab chiqarish quvvati bo`yicha. Jihozlarning salmog`li qismi qaratilgan ommaviy mahsulotlar tayyorlash bo`yicha asosiy va eng ko`p jarayonlarni bajaradigan tsex, uchastka, agregat yetakchi hisoblanadi.

Jihozlar tarkibini belgilayotganda, yil boshida o`rnatilgan, hamda reja yilda ishga tushirilishi kerak bo`lgan hamma jihozlar turlari bo`yicha hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish quvvatini tavsivlovchi bir necha tushuncha ishlatiladi:

- kiruvchi ishlab chiqarish quvvati – reja davrining boshida, korxonada ixtiyorida bo`lgan, ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko`rsatuvchi yil boshidagi quvvat;
- chiquvchi ishlab chiqarish quvvati – kiruvchi va kiritiluvchi quvvatlar yig`indisidan chiqarishi kutilayotgan quvvatni ayirish bilan aniqlanadigan yil oxiridagi quvvat;

- loyihali ishlab chiqarish quvvati - korxonada qurilishi, qayta ta'mirlab qurishi va kengaytirilishi loyihasi bilan ko'zda tutilgan quvvat.

Mavjud quvvatlarning ishlab chiqarish dasturiga muvofiq kelishini aniqlash uchun o'rtacha yillik ishlab chiqarish quvvati hisoblanadi, u yil boshidagi quvvatga yil davomida o'rtacha kiritiladigan quvvatni qo'shib, yil davomida o'rtacha chiqadiganini ayirish bilan topiladi.

Asosiy vositalardan va ishlab chiqarish quvvatidan samarali foydalanishning xalq xo'jaligidagi mohiyatining bahosi beqiyos. Bu vazifani bajarish, jamiyat uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, yaratilgan ishlab chiqarish potentsialining qaytimini (otdachi) oshirish va aholi talabini to'laroq qondirish, jihozlar balansini yaxshilash, mahsulot tannarxini tushirish, ishlab chiqarish rentabelligi korxonada jamg'armasi o'sishi demakdir.

“Popdonmahsulotlari” aktsiyadorlik jamiyatida asosiy vositalarning va ishlab chiqarish quvvatining muvofaqqiyatli ishlashi ulardan foydalanishni yaxshilash ekstensiv va intensiv omillar qanchaga to'la bajarilishiga bog'liq. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatlaridan ekstensiv foydalanishni yaxshilash bir tomondan taqvim davri ichida, harakatda bo'lgan jihozlarning ish vaqti oshadi, ikkinchi tomondan esa – korxonada mavjud hamma jihozlarning tarkibidagi ishlab to'rgan jihozlar salmog'i ko'tariladi. Asosiy vositalarni va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni yaxshilashning ekstensiv yo'li hozircha to'la ishlatilmagan bo'lsa ham, u o'zining chegarasiga ega. Intensiv yo'lining imkoniyati ancha keng. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni intensiv yaxshilash, vaqt birligida jihozlarni ish bilan yuklash darajasini oshirish belgilaydi. Jihozlarni intensiv ish bilan yuklashni oshirish harakatdagi (ishlab to'rgan) mashinalar va mexanizmlarni modernizatsiyalash, ularga optimal ish rejimi o'rnatish bilan erishish mumkin.

Hozirgi sharoitda asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini ko'tarishga ta'sir ko'rsatuvchi yana bir omil paydo bo'ldi. Bu xo'jalik yuritishning hissadorlik shaklining va korxonalarini

xususiyalashtirishning rivojlantirishidir. Har ikkala voqeada ham, mehnat jamoasi (kollektivi) asosiy vositalarning egasi bo`ladi, ishlab chiqarish vositalarini real boshqarishga, imkonga ega bo`ladi, asosiy vositalar ishlab chiqarish tarkibini mustaqil shakllantira oladi, maqsadli investitsiyalashni oshirishga imkon beradigan korxonaga foydasidan mustaqil foydalana oladi.

Asosiy vositalar bozor iqtisodiyoti sharoitida - ishlab chiqarishni intensivlashtirish qilishning hamma omillari hisobiga iqtisodiy rivojni ta`minlovchi bosh omildir. Sanoat korxonalarida asosiy ishlab chiqarish vositalari ko`rinishli turkumlanishi bo`yicha qo`yidagi guruhlariga bo`linadilar:

- binolar, inshootlar;
- uzatish qurilmalari;
- transport vositalari;
- asboblardan va moslamalardan, qiymati 15 minimal ish xaqidan yuqori va xizmat muddati bir yildan ko`p bo`lgan. Xizmat muddati bir yildan kam bo`lgan yoki qiymati 15 minimal xaqidan kam bo`lganlari past qiymatli va tez eskiruvchanlar sifatida aylanma vositalarga kiradi.

Alohida guruhlarning umumiy hajmiga bo`lgan nisbati asosiy vositalarning tuzulmasini ko`rsatadi. Jamiyatda, qaysi guruh asosiy vositalarga pul qo`yilayotganligi farqsiz emas. U, asosiy vositalarning faol (aktiv) qismi mashina va jihozlardan salmog`ining foydani oshirishiga qiziqadi, chunki ular ishlab chiqarishning hal qiluvchi uchastkasida xizmat qiladilar va u yoki bu mahsulot chiqarish bo`yicha korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini tavsiflaydi.

Ushbu tadbirlar moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan ishlab chiqaruvchilar ham, xizmat ko`rsatayotgan muassasalar ham manfaatdor. Chunki, mavjud infratuzilmalar sifatli, o`z vaqtida, to`liq, malakali xizmatlarni ko`rsatsa, infratuzilmalar xizmatlaridan foydalanishga intilish kuchayar edi. Natijada mijozlarning ko`paygan sari infratuzilma asta-sekin yuqori daromad olib boshlaydi. Bu daromad unda ishlaydigan xodimlarga ish haqini oshirishga sabab bo`ladi. Oqibatda esa pul aylanmasi shakllanadi va iqtisodiy

ahvol yaxshilanadi. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda, uning samaradorligini yuksaltirishda moddiy-texnika resurslarining, fan-texnika taraqqiyotining hamda ilg`or texnologiyalarning ahamiyati beqiyos. Ularsiz ko`zlangan natijaga erishib bo`lmaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti natijasida moddiy-texnika resurslarining yangi, unumli, chidamli, sifatli turlari yaratiladi. Ulardan oqilona foydalanish tufayli yangi, samarali texnologiyalar ishlab chiqarishga joriy etiladi. Ulardan foydalanish darajasini, samaradorligini tegishli ko`rsatkichlar tizimi yordamida aniqlash lozim bo`ladi.

## **Xulosa va takliflar.**

Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o'zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o'sishini ta'minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo'jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo'lga kiritildi.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy maydondagi nufuzi va mavqei sezilarli darajada va muntazam oshib bormoqda. Bunda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining puxta ishlab chiqilganligi, iqtisodiy islohotlar maqsadi va vazifalari, amalga oshirish yo'llarining aniq va to'g'ri ko'rsatib berilganligi bosh maqsad yo'lidagi yutuq va marralarning salmoqli bo'lishiga imkon yaratdi.

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o'zining ma'no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashtiruvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish muxim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bu vazifa avvalambor iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, eksportga yo'naltirilgan va mahalliyashtiriladigan ishlab chiqarish quvvatlariga tegishlidir. Shunga ko'ra, ushbu tarmoqlardagi korxonalarni bir qator asosiy yo'nalishlar bo'yicha qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu borada Prezidentimiz o'z

asarlarida aytib oʻtganlaridek: “ Eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarining tashqi bozorlarda raqobatdosh boʻlishini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha konkret chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni ragʻbatlantirish uchun qoʻshimcha omillar yaratish, xususan:

– aylanma mablagʻlarini toʻldirish uchun korxonalarga Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 70 foizidan ortiq boʻlmagan stavkalarda 12 oygacha boʻlgan muddatga imtiyozli kreditlar berish;

– tayyor mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, xorijiy investitsiya ishtirokida tashqil etilgan korxonalarni byudjetga barcha turdagi soliq va toʻlovlardan – qoʻshimcha qiymat soligʻi bundan mustasno – ozod qilish muddatini uzaytirish;

– banklar kreditlari boʻyicha toʻlov muddati oʻtgan va joriy qarzlarni miqdorini qayta koʻrib chiqish, byudjetga toʻlanadigan toʻlovlarning penyasidan kechish va boshqa muhim imtiyoz va preferentsiyalar berish.

Maʼlumki, korxonalarda asosiy vositalari, yaʼni bino, inshoot, mashina, qurilma, asbob-uskuna va boshqa mehnat vositalaridan iborat boʻlgan asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt mobaynida ishtirok etib, natural shaklini saqlab qoladi hamda ularning qiymati ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekinlik bilan qismlarga boʻlib oʻtkaziladi.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish moddiy-texnika bazasining asosi hisoblanadi. Korxonaning ishlab chiqarish quvvati va mehnatning texnik jihatdan qurollanish darajasi asosiy vositalarga bogʻliq boʻladi.

Korxonaning ishlab chiqarish quvvati – bu, ishlab chiqarishning barcha zahiralardan foydalangan holda ishlab chiqarish mumkin boʻlgan mahsulotning maksimal hajmidir.

Ekspluatatsiya jarayonida asosiy vositalar jismoniy va maʼnaviy eskirishga uchrab, bu korxonaga uchun maʼlum bir yoʻqotishlarni keltirib chiqaradi.

Asosiy vositalarning eskirishi bilan bogʻliq boʻlgan yoʻqotishlarni, ulardan foydalanishini yaxshilash, fond qaytimi, smenalik koeffitsienti, ishlab chiqarish

quvvatlaridan foydalanish koeffitsienti kabi asosiy ko`rsatkichlar darajasini oshirish yordamida kamaytirish mumkin.

Bu ko`rsatkichlarni fan-texnika taraqqiyoti hisobiga, asosiy vositalar tuzilmasini mukammallashtirish, uskunalar bekor turib qolishini kamaytirish, mehnat va ishlab chiqarishni takomillashtirish, xo`jalik yuritishning yangi shakllarini rivojlantirish yordamida yaxshilash mumkin.

Foyda bilan bir qatorda amortizatsiya ajratmalar ham korxonada asosiy vositalarini takomillashtirish manbai bo`lib xizmat qiladi.

Asosiy vositalarni rejalash va hisoblash natural ko`rsatkichlari va puldagi ifodasida olib boriladi. Asosiy vositalarni natural shaklida baholashda mashinalar soni, ularning unumdorligi, quvvati, ishlab chiqarish maydoni kattaligi, va boshqa son miqdorlari ko`rsatiladi. Bu ma`lumotlar korxonada ishlab chiqarish quvvatini hisoblashda, ishlab chiqarish dasturini tuzishda, jihoz ma`suldorligini oshirish rezervlarini rejalashtirishda, jihozlarning balansini tuzishda ishlatiladi. Shu maqsadda jihozlarning inventarizatsiyasi va pasportizatsiyasi olib boriladi va uning ko`payishi hamda kamayishi hisob-kitobi yuritiladi.

Asosiy vositalarning pulda ifodalangan yoki qiymatli baholash, asosiy vositalarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni rejalashtirish, eskirish darajasini aniqlash va amartizatsion ajratma miqdorini hamda xususiyashtirish hajmini aniqlash uchun kerak.

Shu o`rinda alohida ta`kidlash joiz-ki, viloyatda mahsulot ishlab chiqarish hajmining ko`payishi eksport sohasidagi ishlar rivojiga ham turtki bo`lmoqda. Hozirda 131 ta eksportyor korxonadan 98,5 mln.dollarlik (113 %) mahsulot eksportga chiqarildi. Shundan xududiy 112 ta eksportyor tadbirkorlik sub`ekti tomonidan 333,4 dollarlik yoki o`tgan yilning shu davrga nisbatan 1,8 marta ko`p tovar va xizmatlar eksport qilindi. Shundan 91,0 foiz tayyor mahsulot ekani ahamiyatga molikdir.

Bugungi kunda viloyatimiz eksport geografiyasini qo`yadigan bo`lsak, viloyatimizdan 62 ta davlat mahsulotlari eksport qilinmoqda. Xorijiy hamkorlar

ishtirokida qo`shma korxonalarni tashkil etish bo`yicha berilayotgan qator imtiyoz va profentsiyalar hisobiga yil davomida 13 ta qo`shma korxonalar tashkil etilib ularning umumiy soni 72 taga yetkazildi.

Keyingi yillarda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilashga doir qilingan xujjatlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik biznes sub`ektlari ulushi tobora ortib bormoqda. Jumladan sanoat sohasida 48,4 foizni (o`tgan yilga nisbatan 5,9 punktga o`sgan) qurilish tarmog`ida 92 foizni (09 punktga), chakakna savdoda 46,3 foizni (2,8 punktga), pullik xizmatlar ko`rsatishda 48,1 foizni (3,6 punktga) tashkil etdi. Faoliyat yuritayotgan kichik biznes korxonalarining umumiy soni 2013 yilning shu davriga nisbatan 3,4 foizga o`tdi. Kichik ishlab chiqarishlarni tashkil qilish amaliy ko`mak ko`rsatish maqsadida xisobot davrida kichik biznes sub`ektlariga foydalanilmayotgan 817 ta (108,2 ming kv.m) davlat mulki ob`ekti ijaraga berildi. Tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub`ektlariga 86,5 mlrd. so`m miqdorida yoki 2013 yilning shu davrga nisbatan 1,3 barobar ko`proq kreditlar berildi. Bu esa viloyatimizda ham sanoat tarmoqlarining o`sish suratlarini ko`taradigan va viloyatimiz dotasiya holatidanchiqish uchun yetarli salohitatga ega ekanligidan dalolat beradi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug` kelajagimizning asosiy omillari" nomli ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma, T., 2013 yil.
2. "Tarixiy, madaniy va ma'rifiy merosimiz, urf-odat va qadriyatlarimiz – intellektual kelajagimizning mustahkam poydevori" mavzusidagi xalqaro konferentsiyasidagi nutqi. 2014 yil 14-15 may.
3. Prezident I.A. Karimovning "O'zbekistonda oziq – ovqat dasturini amalga oshirishning muhim zahirolari" mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 2014 yil.
4. I.Karimov "2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish xisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir." "Xalq so'zi" gazetasi 2015 yil 18 yanvar
5. I.A. Karimov "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohot va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" T. "O'zbekiston" 2013 yil.
6. I.A. Karimov 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. "Xalq so'zi" - 2014 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi "Inson manfaati, huquq va erkinliklarini ta'minlash, hayotimizning yanada erkin va obod bo'lishiga erishish – bizning bosh maqsadimizdir" nomli ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma, T., 2013 yil.

8. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Prezident Islom Karimovning 2013 yilning asosiy yakunlari va 2014 – yilda O`zbekistonni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi “Xalq so`zi”, 2014 yil 28 yanvar.
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari I.A.Karimov. – T: O`zbekiston, 2009 yil.
10. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. Prezident Islom Karimovning 2008 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma`ruzasi “Xalq so`zi”, 2009 - yil 14 fevral.
11. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. – T.: O`zbekiston, 2009 y.
12. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Chet ellik investitsiyalari to`g`risida. 1998 yil 30 aprel.
13. O`zbekiston Respublikasining Qonuni. Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va himoya choralari to`g`risida. 1998 yil 30 aprel.
14. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. O`zbekiston Respublikasining 2010 yilgi Investitsiya dasturi to`g`risida. 2009 yil 28 oktyabr.
15. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisining Qarori. 2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to`g`risida. 2009 yil 13 fevral.
16. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida. 2009 yil 20 yanvar , PQ-1041-son.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishi. Iqtisodiy nochor korxonalarini tijorat banklariga sotish tartibni tasdiqlash to'g'risida. 2008 yil 19 noyabr, F-4010-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2008 yil 18 noyabr, PF-4053-son.
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2009. – 120 b.
20. I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” T–2011 yil.
21. O'zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo'lida. (Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V.) T.: Iqtisodiyot, 2008. – 126 b. (elektron versiyasi bilan).
22. Ommabop iqtisodiyot: mohiyati va asosiy tushunchalari (o'zbek va rus tillarida). Ilmiy-ommabop qo'llanma. (Bekmurodov A.Sh., Gimranova O.B., Shamshieva N.N.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 92 b. (elektron versiyasi bilan).
23. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash yo'lida. Ekspress-prospekt. (Bekmurodov A.Sh., Berkinov B.B., Usmonov B.B., Hamidov O.M., G'afurov U.V. va Ne'matov I.U.) T.: Iqtisodiyot, 2009. – 5 b. (elektron versiyasi bilan).
24. N.N.Rasulov. Stimulirovanie privilecheniya inostranno'x investitsii v ekonomiku Uzbekistana.-T.: «FAN», 2003.-165 s.
25. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 1-qism. Bekmurodov A., Boltabaev M., G'oyibnazarov B., Amanbaev M., Toshxo'jaev M. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. – T.: TDIU, 2005.
26. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 2-qism. Bekmurodov A., Hakimov R., Safarov B., Zaxidov G. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va fermerlik harakati. – T.: TDIU, 2005.

27. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 3–qism. Bekmurodov A.Sh., Sattorov S., To`raev J., Soliev K., Ro`ziev S. Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji – davr talabi. - T.: TDIU, 2005.
28. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 4-qism Bekmurodov A., Tojiev R., Qurbonov X., Alimardonov M. Moliya va bank tizimidagi islohotlar samarasi. – T.: TDIU, 2005.
29. O`zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yillarida 5-qism. Bekmurodov A., Tairov Sh., Maxmudov E., Isakov M., To`raev N. Tashqi iqtisodiy siyosat: savdo va investitsiyalar oqimlari. – T.: TDIU, 2005.
30. “Qo`shma korxonalarini tashkil etishga investitsiyalarni kiritishning ustuvor yo`nalishlari va vazifalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – T.: TDIU, 2008.
31. O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasining tegishli yillar bo`yicha statistik to`plamlari
32. Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari. (Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari), Namangan – 2014 y.
33. Namangan viloyatining ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko`rsatkichlari. (Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma`lumotlari), Namangan - 2015 y.
34. [www.mfer.uz](http://www.mfer.uz) – O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo Vazirligining rasmiy sayti
35. [www.uzinfoinvest.uz](http://www.uzinfoinvest.uz) - «O`zaxborotinvest» agentligining rasmiy sayti.
36. [www.google.uz](http://www.google.uz)